

Kasbimizning nozikligi shundaki...

O'quvchining o'zlashtirishi, odobi yaxshilansa, atrofdagilar bilan do'stona munosabatga kirisha olsa va bundan ota-onasining ko'ngli nurga to'lsa men o'z vazifamni bajargan bo'lamen. Bir insonni to'g'ri yo'lga boshlash, hayotga qarashlarini o'zgartirish muallimlik kasbining nozik tomonlaridan biri ekanini angladim.

2-bet

Ustozlik nomiga dog' tushirmang, hamkasb!

Ba'zida hamkasblarimning, ayniqsa, yosh o'qituvchilarning dars bayonnomalarini kuzata turib, hayratdan yoqa ushlayman. So'z va iboralar noto'g'ri qo'llanilgan, matn darslikdan imlo xatolari bilan shundoq ko'chirilgan...

3-bet

Sinf rahbarining bir kuni...

Nigora maktabdagi kundalik ishlarini yakunlagach, uyiga odatdagidan ertaroq qaytdi. Yo'l-yo'lakay ro'zg'or yumushlarini rejalashtirib boshladi: "Anchadan buyon nimadir sabab bo'lib, kech qaytyapman. Bolalarim tezpishar taomlardan zerikdi, chog'i.

6-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 30-sentabr, chorshanba № 36 (9309)

Xalq ziyolilari gazetasi

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

Bolajonlarning sevimli ustozlari



Millatning kelajagi bo'lmish yosh avlod o'qituvchining qo'lida tarbiya topadi. Uni porloq manzillarga eltuvchi yo'lbo'shchi-da ustozdir. Ana shunday mas'uliyatli kasbning mashqatli so'qmoqlaridan shaxdam qadamlar-la borayotgan fidoyi ustozlardan biri — Yunusobod tumanidagi 272-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Nigora Maxsumovadir. Uning jajji shogirdlari o'qu-

vchilar o'rtasida o'tkazib kelinayotgan "Zukko kitobxon", "San'atim — baxtim" kabi qator ko'rik-tanlovlarda g'olib bo'lib kelmoqda. Nigora opa maktablar ochilib, qadrdon o'quvchilari quchog'iga qaytganidan shod. Bolajonlar ham sevimli ustozining saboqlariga ancha intiq edi. U millat oldidagi mas'uliyatli burchini o'tashda davom etmoqda.

O'quvchilar va abituriyentlar diqqatiga!

Gazetamiz o'quvchilar va abituriyentlarga yordam tariqasida yangi — "Ma'rifat" repetitori" ruknini tashkil etmoqda.

Mazkur rukn ostida oliy o'quv yurtiga qabul imtihonlaridagi majburiy uch fan — ona tili, matematika va O'zbekiston tarixidan topshiriq va testlar muntazam e'lon qilib boriladi. Bu orqali abituriyentlar ushbu fanlarni tizimli va taqvimiy asosda o'rganish hamda bilimlarini o'z vaqtida sinovdan o'tkazib, monitoring qilib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, e'lon qilinadigan testlardan variativ sinflar va barcha sinf o'quvchilari uchun sinov testlari sifatida foydalanish mumkin.

Hurmatli abituriyentlar! Imtihonlarga "Ma'rifat" gazetasi bilan birga tayyorgarlik ko'ring!

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz /marifat.uz @marifatziyo

"Ma'rifat" gazetasiga ochiq xat



7-bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



O'tgan o'quv yilidagi o'qituvchilar bayrami yodinga tushdi. 11-sinf rahbari edim. Ular bilan kelishib maktabga erta kelgandik. Hovliga kiraverishda jonli yo'lak hosil qilib, ustozlarni ko'tarinki kayfiyatda tabriklagandik. Jonli kuy-qo'shiqlar bilan bayramni o'zga-gacha ruhda o'tkazgandik. Havo salqin, bulutli bo'lishiga qaramay, hammaning yuzida xursandchilik namoyon bo'lgandi. Qani edi, ana shu shirin hislarni bu yil ham his qila olsak. Karantin tugab, o'quvchilarimiz maktab quchog'iga qaytsa, niqoblar unutilsa... Kulib turgan chehralarga kulib boqsak...

Shoira TURDIBEKOVA

Jasunir onasi ko'p tergayotganga o'xshaydi... Hanifaning yozuvi juda xunuklashibdi...

Chiylidoq Muslimamning ovozlari-ni eshitmaganimga qancha bo'ldi-ya... Anvarning o'qishi yaxshi edi, vazifalarni chala bajaradigan bo'libdi...

Mirodil, Asqar, Sevinchlarni bir qu-log'idan tortib qo'yamasam, dangasa bo'lib ketishgan ko'rinadi...

Eh, bu kunlar tezoq tugasa-yu, oldingiday dars o'tsak. Bilimdon, qiziquvchan, ziy-rak o'quvchilarimni yo'qotib qo'yganday-man.

Soliha HAMROQULOVA

Orzuga ayb yo'q. Qani endi, maoshimiz 5 million bo'lsa. Rahbarlarimiz aytganidek, 1000 dollar bizga ko'plik qiladi, uni qayerga sarflashni ham bil-may qolsak kerak. Lekin 5 millionni amalla-sa bo'ladi. Hech bo'lmaganda, daftar, ruchka, maskaga ehtiyojmand o'quvchilarimizga yordamimiz tegardi. Ustama bermasayam may-li-yu, ammo yilda bir marta beriladigan mu-kofot pulidan mosuva qilinmasak yaxshiydi. Afsus... Bu orzuligicha qolmasa bo'ldi.

Xosiyat JUMABOYEVA

Ba'zan ijtimoiy tarmoqlarda maktabdagi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar bilan bog'liq xabarlarga duch kelamiz. Ayniqsa, keyingi vaqtda pedagogning asabiyliigi, o'quvchiga qattiq tanbeh berishi, ba'zan qo'l ko'targani tasvirlariga guvoh bo'lyapmiz. Bu holat shunchalik kuchayib kettiki, natijada ko'pchilik o'z aybini berkitish uchun shu usuldan foydalanish, ya'ni o'qituvchini foto, videotasvirga olib tarqatishga urinmoqda. Atrofdagi odamlar esa masalaning asl mohiyatini bilmay xulosa chiqarishadi. Axir tanging bizga noma'lum bo'lgan ikkinchi tomoni ham bor-ku.

O'qituvchini nishonga olmang!

Ko'p hollarda o'qituvchining asabiylashishiga o'quvchining noo'rin xatti-harakati, nojoiz intizomi sabab bo'ladi. Yana bilim berish va uni uqib olish kishidan mashaqqat talab qiladi. Buning uchun sabr-toqat va qat'iyat zarur. O'quvchilar yosh bo'lgani uchun mazkur jarayonga biroz beparvo qaraydi. O'qituvchi esa qay usul bilan bo'lsa-da, ular bitta mavzuni qiziqib tushunishini istaydi. Agar bitta sinfda o'rtacha 25 bola bo'lsa, bu 25 xil fe'l-atvor degani. Afsuski, ularning barchasi ham yumshoqko'ngillik bilan qilingan muomalani suiiste'mol qilmaslikka qodir emas. Chunki ular hali bola, o'zlariga nima yaxshi-yu, nima yomon ekanini to'la anglab yetgani yo'q. Ana shu jarayonda ba'zi o'qituvchilarning biroz qattiqo'lik qilishiga to'g'ri keladi. Bunga chidamagan o'quvchi esa o'zini "qutqarishga" harakat qila boshlaydi. Natijada biz guvoh bo'layotgan muammolar yuzaga keladi. Bunday voqea kelib chiqishiga yana bir sabab shuki, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi biroz yangilishidir. Ayrimlar "biz ko'rmaganni bolamiz ko'rsin" qabilida ish tutib, hamma narsani muhayyo qilishga harakat qilishadi. Ammo bu moddiy ta'minot bilan bola tarbiya topib qolmaydi,

taltayib ketadi, o'ziga qo'yilgan cheklolarni tan olmay qoladi.

Qadimda ota-bobolarimiz farzandini ta'lim olishi uchun madrasaga olib borishgan. Ustozlarga bo'lgan hurmatning kuchlilik, qolaversa, bolaning puxta bilim olishiga bo'lgan ishtiyoqi ziddiyatli vaziyatning kelib chiqishiga to'sqinlik qilgan. Bolani ustozga topshirar ekan "eti sizniki, suyagi bizniki" iborasini qo'llashgan. Bu bilan ilm olish mashaqqatlariga dosh beramiz, faqatgina mehnatimiz zo'ye ketmasa bas, deya fikrlashgan ular. Ehtimol, shuning uchun ham ko'pgina sohalarning asoschilari, piru donishlari bizning bobokalonlarimiz bo'lishgandir. Aslini oladigan bo'lsak, bolaning yaxshi o'qishi, ulg'ayib, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishidan avvalo uning ota-onasi manfaatdor. Har bir oilada bir farzandning dunyoga kelishi ertangi kunga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi. Nurli kelajakdan umidvor ota-ona esa, bu yo'ldagi mashaqqatlarga ham dosh bera olmog'i lozim. Ana shu yo'lda ular bilan tengma-teng harakat qilayotgan o'qituvchini ham hurmat qilmog'i shart.

Sabohat SAMATOVA,
Termiz shahridagi 20-maktab o'qituvchisi

Poydevor mustahkam bo'lsin!

Maktabga piyoda qatnayman. Bu bir tomondan sog'liqqa foyda bo'lsa, ikkinchidan yo'l insonni tarbiyalaydi. Yoningizdan har xil qiyofalar, har xil taqdir-lar o'tadi. Yana turli-tuman voqea-hodisalarga guvoh bo'lasiz. O'zingizcha xulosalar chiqarasiz...

Maktabga ketarkanman, bir kuni ko'chamiz boshida yangi imorat boshlagan ustaning shogirdlarini tergayotgani ustidan chiqib qoldim: "Necha marta aytdim senlarga! Poydevorni chuqur-roq kovlanglar deb. Qo'l uchida ishlaysanlar. Poydevori mo'rt imorat-imoratmi?! To'rt kun o'tmay qulaydi-ku!.."

To maktabga yetgunimcha ustaning tergalari qulog'im ostidan ketmadi. O'ylab qararam, biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari-da poydevor qurguvchi ustalar kabi ekanmiz. Butun bir millatning asosi, ertangi kuni biz ta'lim-tarbiya berayotgan shu qorako'z bolajonlar emasi mi axir.

Birinchi sinflarim yozishni o'rganayotganda bor diqqatini jamlab, asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, har bir harfni ehtiyoqkorlik bilan qog'o'zga tushiradi. Bo'yaliy ketishi, yozganlarining xunuk chiqishini istamaydi. Biz ham ulardan ulgu olib oq qog'o'zdan-da sofroq ko'ngillarga vatanga muhabbat, to'g'rilik, or-nomus, ezgulik kabi fazilatlarini go'zal husnixat bilan bita olsak, shu eng ulug' muvaf-faqiyatimiz bo'ladi.

Insonda iste'dod, iqtidor bolaligidan shakllanadi. Buni ilg'ay olish, o'stirish o'qituvchining vazifasi. Ba'zan qo'ng'iroq chalingach maktab foyesini boshiga ko'tarib sho'xlik qilayotgan, men tinmay savollarga ko'mib tashlayotgan oq, sariq, bug'doyrang shirin-toylarning yillar o'tib uchuvchi, jurnalist, quruvchi, dizayner... bo'lib shu sinfxona eshigidan "Ustoz, omonmiziz?" deb jilmaygan-cha kirib kelishlarini tasavvur qilaman.

Nuriya ISOQULOVA,
Pastdarg'om tumanidagi 1-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mavqeyimizni o'zimiz oshirishimiz kerak!

Yurtimiz ta'lim tizimining yutug'i shundaki, bizda ta'lim tarbiya bilan uzviy holda olib boriladi. To'g'ri, muayyan muddat asosiy e'tiborimizni ta'limga qaratolmadik. Natijada tizimda muammolar vujudga keldi.

Bu holat o'qituvchining ta'lim berishdan ko'ra tashkiliy ishlarga ko'proq jalb qilinishi bilan bog'liq edi. Shukrki, barchasi iziga tushmoqda. Lekin islohotlarga bepisand qarayotgan yoki bunday qulay sharoitlarni to'la tushunib yetmagan o'qituvchilar ham oramizda uchrayotgani achinarli, albatta. O'qituvchi kim? U kelajagimizni belgilab beradigan, yurtimizning rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan avlodning tarbiyachisi, ustosi.

Keling, bir tarixga nazar tashlasak. XI asrda Xorazmda Ma'mun akademiyasi ochilishi natijasida Xorazm davlati gul-lab-yashnadi va taraqqiy etdi. Lekin keyinchalik Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinib, akademiya faoliyat olib borayotgan olimlarning G'aznaga olib ketilishi natijasida bu davlat inqirozga yuz tutdi. Yoki XIX asr oxirlarida O'rta Osiyo-da kurtak yozgan jadidlar faoliyatiga chek qo'yilishi oqibatida yurtimiz qoloqlik girdobiga tushib qoldi. Milliy g'urur, ma'naviyatimiz va o'zligimizni anglab yetishimizga uzoq vaqt kerak bo'lgani hech kimga sir emas. Bu faktlarni keltirishimdan maqsad — qaysi davlatda ilm-fan taraqqiy etar ekan, albatta, o'sha davlat rivojlanib boradi va doimo mustaqil bo'ladi. Hozirgi kunda ham faqat oylik maosh olish va kun o'tkazish uchun maktab-da yurgan va bugungi kun talabini his qilmayotgan ustozlar nahotki yurtimiz kelajagiga shunchalik befarq. Dars — muqaddas degan shiorni unutib qo'yib, asosiy vaqtini behuda sarflayotgan ustozlar ham uchramoqda.

Mana, yurtimizda o'qituvchi mavqeyini oshirish uchun harakat qilinmoqda. Lekin shuni tushunib yetishimiz kerakki, obro'yimiz oshishi faqat davlat rahbari yoki Xalq ta'limi vaziriga bog'liq emas. O'zimiz harakat qilmasak, o'z ustimizda ishlamasak, hech qachon mavqeyimizni tiklay olmaymiz.

Elyorjon MAHKAMOV,
Rishton tumanidagi 21-maktab o'qituvchisi

1-sinfga qabul qilingan bolalarning ayrimlari darslarni o'zlashtirishda qiynaladi. Bunday holat ayniqsa nutqida biroz kamchiligi bor, tez harakat qiluvchi, bolalar bilan do'stlasha olo olmaydigan, janjalga moyilligi bor bolalarda ko'p kuzatiladi.

Kasbimizning nozikligi shundaki...

Faoliyatim davomida shunday o'quvchilar bilan ko'p ishladim va yaxshi natijaga erishdim. Nutqida kamchiligi bor o'quvchilar bilan savodxonlik davridan muammo bartaraf etilgunga qadar mustaqil ish olib boraman. 1-sinfga kelgan o'g'il bolada shunday holat borligini ilk tayyorlov davrida sezdim. U juda tez so'zlardi, o'rnidan turib boshqalarga xalaqit berar, tovush va bo'g'inlarni xato talaffuz qilardi. Hatto, uning so'zlariga ham tushunib bo'lmadi.

O'z oldimga shunday maqsad qo'ydim: men o'qituvchiman, har bir o'quvchim yaxshi o'zlashtirishiga mas'ul-man. Shu bola bilan ko'proq shug'ullanib, uni tengdoshlariga yetkazib olaman. Har bir harf, tovushni o'rganishda ovoz chiqarib talaffuz qilishi, birgalik-da o'qishi, boshqa bolalar uning o'qishiga kulmasligi, aksincha, do'stona munosabatda bo'lishini tayinladim. Bunday bolalar boshqalardan og'zaki nutqi, his-oblash malakasi, ranglarni ajratish va she'r yod olishga qiynalishi, qolaversa, o'z-o'zini boshqara olmasligi bilan ham farqlanadi.

Mashg'ulotlarda ko'proq rasmlar orqali fikrni jamlashga, 1 dan 10 gacha sonlarni raqamlash,

ular ustida amallar bajarishda ham rasmlardan foydalandim. Qushlar, hayvonlar, gullar va o'yinchoqlar tasviri yordamida qo'shish va ayirishni o'rgatdim. Masalan, 3+2=... 3 ta gul bor edi, yana 2 ta gul ekdik. Necha gul bo'ldi? 5 ta deb hisoblay oldi. Shu tariqa bola bilan jiddiy shug'ullana boshla-



dim. O'quvchilarni u bilan do'st bo'lish, bir-biriga yordam berishga undadim. O'g'zaki va yozma nutqni shakllantirish maqsadida kichik hikoya, ertaklar o'qib, uni ongli tushunishiga, eslab qolib, so'zlab berish va yozdirishga harakat qildim.

O'quvchim darsdan tashqari mashg'ulotlarni uyda opasi bilan birga bajaradigan bo'ldi. Chunki bolaning ota-onasi doim ishdan bo'lardi. U tez hushdan ketardi,

xayoli doim parishon yurardi. Bu holatlarni maktabda men, uyda opasi nazorat qilardik. Keyinchalik o'qish jarayoni unga og'irlik qila boshladi. Tez-tez shifoxonaga tushib, besh kunlab dars qoldira boshladi. Shifokori bilan subhatlashganimga bolada gipertonik talvasa sindromi borligi, uni yaxshilab davolash zarurligini aytdi.

O'qish bilan birga davolana boshladi. Hozir u 3-sinfda o'qiyapti. O'zlashtirish boshqa o'quvchilarday bo'lmasa ham harakati bor. Nutqi ancha yaxshilandi. Kayfiyatining o'zgarib turishi, tormozlanish holatlarini kamaygan. O'qishga qiziqishi ortdi. Tengdoshlaridan ortda qolmaslikka harakat qilmoqda. Shu o'quvchining o'zlashtirishi, odobi yaxshilansa, atrofdagilar bilan do'stona munosabatga kirisha olsa va bundan ota-onasining ko'ngli nurga to'lsa men o'z vazifamni bajargan bo'laman. Bir insonni to'g'ri yo'lga boshlash, hayotga qarashlarini o'zgartirish muallimlik kasbining nozik tomonlaridan biri ekanini angladim.

46 yildan buyon boshlang'ich sinflarga bilim beraman. Har gal o'quvchilarim ortidan rahmat eshitsam yoki aytib o'tganimgay biror o'quvchimni bilim olishga rag'batlantira olsam, kasbinga bo'lgan mehrim yanada ortadi. Jamiyatga foyda keltirayotganimdan quvonaman.

Mopar HAYDAROVA,
Sherobod tumanidagi 60-maktab o'qituvchisi

Ustozlik nomiga dog' tushirmang, hamkasb!

Dehqon besh-olti oyda, bog'bon uch-to'rt yilda mehnatining samarasini ko'radi. Muallim mehnati hosilini ko'rish uchun esa bir necha o'n yil kerak bo'ladi. Dehqon-u bog'bon ishidagi xatoni to'g'rilasa bo'lar, ammo muallim xato qilsa... Ba'zan katta-katta davralarda, to'y-hashamlarda ishtirok etishimga to'g'ri keladi. Davradagi kishilarning ba'zilarini tanish, ba'zilarini notanish hamda turli kasb egalari bo'lib, suhbat mavzusi ham shunga yarasha.

Albatta, suhbat o'qituvchilar haqida ketganda ba'zan xursand bo'laman, ba'zida ko'nglim ranjiydi. Chunki kimdir qaysidir muallim haqida mamnun bo'lib gapirsa, yana kimdir boshqa bir muallim haqida tanqidiy fikr bildiradi. Ko'nglimning ranjishi tanqiddan emas, shunday tanqidlarga "sazovor" muallimlar borligidan.

Zamon shiddati, zamonaviy axborot texnologiyalari biz, o'qituvchilarga va ota-onalarga juda katta mas'uliyat yukladi. Yoshlar ham zamonga mos bo'lib ulg'aymoqda. Bu holat o'qituvchidan o'z ustida muntazam ishlashni, zamon bilan hamqadam bo'lishni, axborotni qayta ishlab, mentalitetimiz va qadriyatlarimizga mos holda o'quvchilarga yetkazib bera olishni, tajribali ustozlarning pand-nasihatlariga, o'g'itlariga amal qilishni talab etadi. Ustozlar o'g'itiga bejiz to'xtalmayapman. O'g'itlar, pand-nasihatlar — katta tajriba. Ayniqsa, yosh o'qituvchi uchun. Faoliyatim davomida bunga ko'p bora guvoh bo'ldim. Ayrimlarini yodga olsam.

1990-1991-yillar edi. Maktab ostonasini bosib, endigina ishga kelgan paytlarim. Otam Rajab bobo Subonov o'sha paytlari ona tili va adabiyot fanidan dars berardi. Shu bilan birga, direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimida ham ishlardi... Maktab direktori tashkiliy ishlar bilan tuman markaziga, otam esa qandaydir tadbir o'tkazilishi munosabati bilan viloyat markaziga ketishgan. O'sha kuni 5-sinfda oxirgi dars matematika bo'lib, qo'ng'iroqdan keyin sinfxonaga kirdim. Mashg'ulotni boshlaganimga o'n-o'n besh daqiqacha bo'lgan bo'lsa-da, tashqarida shovqin-suron tinavermadi. Mashg'ulotni to'xtatdim va o'quvchilaringa topshiriq berdim-da, sinfxonadan chiqdim. O'quvchilar maktab hovlisini boshlariga ko'tarib o'ynab yurishibdi. O'qituvchilar xonasi tomon yurdim. Uchinchi soatdan so'ng katta tanaffus payti ikki o'qituvchimiz shaxmatni boshlaganidan, boshqalar esa ularga muxlislik qilayotganidan xabarim bor edi. Keyin bilsam, o'yin hali ham tugamagan, shu sababli qiziqib muxlislik qilayotgan o'qituvchilar mashg'ulotni "unutishgan" bo'lsa kerak. Bu holatdan hayron edim.

Bahs-munozara shunchalik qizigan ediki, kelganimni hech kim payqamadi ham. Bir chetda bo'sh turgan stullardan

biriga o'tirdim-da, ajablanib ularni kuza-tdim. Oradan biroq vaqt o'tdi. Nazarimda, o'yinni yakunlab olishsin deb kutib turgan direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari meni ko'rgach, dars jadvalining yoniga keldi va uni kuzatar ekan:

— Shuhrat, darsing yo'qmi? — dedi.

— Bor, lekin shovqin-suron bo'layotgani uchun...

Shu bilan u kishi joyiga borib o'tirdi-da, o'z ishi bilan band bo'ldi. Men esa karaxt holda tashqariga chiqib ketdim, lekin sinfxonaga qaytib kira olmadim.

Oradan bir haftalar o'tdi chamasi, bir kuni ishdan qaytib kelib tushlik qilgach, uy yumushlarini bajarishga turmoqchi edim, otam ukalarimga bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar berdi. Ukalarim chiqib ketishgach, menga qarab:

— O'g'lim, o'tir-chi, — dedi.

Sekingina joyimga o'tirdim. Oradan bir necha daqiqa o'tgach, gap boshladi:

— Falonchi kuni, falonchi soatda darsingni o'tmabsan, sababi nima, o'g'lim? Xayolimdan yashin tezligida "yetkazishibdi" degan fikr o'tdi.

— Bilasizmi, ota, o'sha kuni vaziyat shu darajada ediki, dars o'tishning imkoni bo'lmadi.

— Sabab?

— Sababi... shovqin-suron. O'qituvchilar darsga kirishmagan, ular dars payti boshqa "ish" bilan band bo'lishdi. Men ham darsga kirmadim...

Otam biroq jim turdi-da:

— O'g'lim, esimni taniganimdan beri bironing qabriga boshqa biron yotganini eshitganim yo'q. Yaratganning, qonunning oldida har kim o'z qilmishiga o'zi javob beradi. Nima demoqchiligingni juda yaxshi angladim. Senga ota emas, ko'pni ko'rgan, ozmi-ko'pmi hayotiy va kasbiy tajribaga ega bo'lgan, o'qituvchi so'zining ma'no va mohiyatini anglagan ustoz sifatida aytaman: ertaga maktabga borganingdan so'ng arizangni yozgin-da, o'z ixtiyoring bilan ishdan bo'sha! Bu o'y-fikr va tushunchalaring bilan o'qituvchi nomiga dog' tushirasan! Sendan o'qituvchi chiqmaydi! Va yana aminmanki, dunyoqarashingdagi bu illatlardan qutulmas ekansan, sendan hatto o'rtamiyona ketmonchi ham chiqmaydi, bolam!..

Otam gaplarini dona-dona va bir xil ohangda, shunchalar ravon tarzda ifoda etdiki, uyatdan butun a'zoyi badanim-



dan sovuq ter chiqib ketdi. Ertasi kungi dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rar ekanman, otam aytgan gaplar sira tinchlik bermasdi. Nihoyat bu gaplarning mag'zini chaqdim — o'zing uchun o'zing javob ber!

Umri uzoq bo'lsin! Otamning bu gaplari hayotiy shiorimga aylandi va hozirga qadar bu shiorga amal qilib kelmoqdaman.

Bir necha yildan so'ng taqdir taqozosi bilan boshqa maktabga ishga o'tib ketdim. O'qituvchilik faoliyatimni boshlaganimga ham o'ttiz yilcha bo'libdi. Ammo hali-hanuz shogirdman. Ko'chako'ya, to'y-tomoshada uchrashib qolsak yoki yo'qlab borib qolsam, ustozlarimning dono o'g'itlari va maslahatlarini tinglayman. Ularning ko'pi o'tib ketishdi. Lekin o'rganganlarim, ularning hayotiy saboqlari hech qachon yodimdan chiqmaydi. O'z navbatida, men ham o'sha o'g'it va maslahatlarni shogirdlarimga yetkazib kelmoqdaman.

Hamkasblarim va ustozlarimning dars jarayonlarini kuzatar ekanman, ularning yutuq va kamchiliklarini taqqoslab borardim. O'zim yaxshi deb bilgan jihatlari faoliyatimda qo'llay boshladim. Matematika darsida odobnoma, ona tili va adabiyot fanlaridan vaqti-vaqti bilan foydalanishni ustozim Gulnora opa Baratovadan o'rgandim. Ustozning darsini kuzatar ekanman, dars jarayonida o'quvchilarda ozzina charchoq yoki zerikishni sezdimi, darsni o'sha joyda to'xtatib, to'rt-besh daqiqalik tanaffus e'lon qilib, mumtoz yoki hozirgi zamon shoirlarimiz ijodidan namunalarni yoddan o'qib berardi. O'qituvchilar ham hayron: "Iya, ustozimiz adabiyotni ham bilar ekanlar, qoyil!..". Charchoqni unutilgan o'quvchilar yana misol va masala ishlashga tushib ketishardi.

Endi ba'zi kuzatuvlarimni bayon qilam. Hamkasblarimdan ayrimlarining fikrlarini tinglab va ularni sirtidan kuza-tib, ajablanaman. Hozirgi zamondoshim bilan avvalgi ustozlar faoliyatini taqqoslayman. Bir kunlik dars uchun nima

kerak bo'lsa, ustozlarning portfelidan topsa bo'lardi. Hatto tushligi ham o'zlari bilan birga edi. Mashg'ulotdan bo'sh vaqtlari o'zaro dars kuzatishga yoki kutubxonaga yo'l olishardi. Bahs-munozaralarning asosiy qahramoni esa qaysi bir gazeta yoki jurnalda berilgan ta'lim-tarbiya to'g'risidagi maqola, yoki bo'lmasa, yaqinda o'qib tugatilgan badiiy asarlar mazmuni bo'lardi.

Ba'zida hamkasblarimning, ayniqsa, yosh o'qituvchilarning dars bayon-nomalarini kuzata turib, hayratdan yoqa ushlayman. So'z va iboralar noto'g'ri qo'llanilgan, matn darslikdan imlo xatolari bilan shundoq ko'chirilgan... "Tushunmadim, bu nimasi?!", desam, "Shuni kim o'qib ko'ryapti, dars bayonnomasi bormi, bo'ldi-da. Mening mutaxassisligim boshqa, ona tilini bilishim shart emas...", degan javobni oldim. "Dars — muqaddas, uka. O'zbek tilida gapirish — ona tilini bilaman degani emas. Bir soatlik dars bu — buyuk bir asardir deyilgan. O'qituvchi degani muayyan soha yoki fan bilan chegaralanib qolish degani emas. Balki u boshqa fanlarni ham bilishi shart demakdir, uyalmaysanmi?!", deganimcha qolaman. Bunaqalar ko'p emas, lekin bor-da...

Ajabo, institut yoki universitet diplomi bor, demak, u ham o'qituvchi-da!.. Buning aybdori — o'zimiz. Bu — ta'lim-tarbiya berishdagi eng katta xatolarimizdan biri. Shu tobdan otamning bir gapi yodimga tushdi: "Diplomni har kim va har qanday yo'l bilan olishi mumkin... Demak, "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin", degan mashhur maqolning mohiyati shu ekan-da!.. Shunday "o'qituvchilar" bor ekan — bu ulug' nomga dog' tushaveradi... Ularga talabni keskin kuchaytirish lozim. Toki o'qituvchi obro'siga dog' tushmasin! Chunki obro' va ehtirom — ustozlarimizdan merosdir!..

O'qituvchi kundaligidan

Ustoz ham do'st bo'la oladi

Bu voqea ancha ilgari, hali maktablarda psixologlar bo'lmagan davrda ro'y bergan edi. O'quvchilarim bilan "Men va yaqinlarim" mavzusida suhbatlasha turib, bir o'quvchi qizning mahzun tortganini zimdan payqadim. Keyingi safar "Akam yoki opamga qanday mufojat qilaman?" mavzusida har bir o'quvchi bilan gaplashayotib yana o'sha o'quvchining nimadandir siqilayotganini sezdim. Hamkasblarimdan surishtirib bu qizaloq o'gay ota qo'lida tarbiya topayotganini eshitgach, u bilan yolg'iz suhbatlashishga qaror qildim.

Ochilib hech kimga gapirmaydigan qizning dilidagilarni bilish oson kechmadi. Biror dugonasi bor yoki yo'qligi, dilidagi eng yashirin sirlarini kim bilan o'rtoqlashishini bilish uchun talay vaqt ketdi. Zimdan olib borgan surishtiruvlarim orqali onasi birinchi turmushidan ajrashib, ikkinchi bor turmush qurganini, asli befarzand bo'lgan o'gay ota qiz va uning akasiga yaxshi munosabatda bo'lsa-da, onasini mudom kaltaklab, xo'rlab kelishini bilib oldim. Shu muhitda tarbiya topayotgan qiz na onasiga, na akasiga dilidagilarni tortinmay ayta olar ekan. Shundan so'ng ishonch bilan agar kim bilandir dildan gaplashishga, maslahat so'rashga ehtiyoj sezsa, uni har qanday holatda eshitishga va to'g'ri tushunishga tayyor ekanimni hamda eshitganlarimni hech kimga aytmasligimni tushuntirdim. Qizcha biroz hadik bilan ortiga qaytdi. Darslarda kuzata boshladim. U ilgorigidan ancha quvnoq. Yonimga ayrica erkaklik bilan vazifalarini tekshirishga olib kelardi. Hatto bir kuni menga yozgan maktubida o'z otasining ismini ko'rsatib, bu mening haqiqiy sharifim, eng katta orzum — o'z otamni izlab topish, deb yozgan edi. Esimda, har bir maktubini "eng aziz ustozim — do'stinga", deb boshlardi. Uning maktublaridan biriga yozgan javobimda dunyodagi eng katta baxtsizlik — ota va qizning ayro yashashi emasligini, to'kis oilalarda ham hayot bir tekis ketmasligini aynan qishlog'imizdagi kishilar misolida tushuntirdim.

Ko'p o'tmay qiz meni suhbatlashish uchun xoliroq joyga chaqirdi. Gaplaridan ma'lum bo'ldiki, uni o'z otasi izlab kelibdi. Mustaqillikdan keyin chegaralar yopilgan tufayli Tojikistonda qolib ketgan ota farzandlarini olib ketishni istayotgan ekan. 16 yoshga to'lguncha barcha dilxiraliklar sababi otasi bilan yashamayotgani deb bilgan, tun-u kun otasini ko'rish, u bilan yashash ishtiyogida yurgan qiz ko'zi to'la yosh bilan nima qilishni bilmayotgani haqida gapirsa ham ich-ichidan otasi bilan ketishni xohlayotgani

ravshan edi. U bilan suhbatimiz ancha cho'zildi. Otasi yana turmush qilgan-qilmagani, o'gay otasi uning ketishiga qanday qarashi, agar ketmoqchi bo'lsa onasi qay ahvolga tushishi haqida uzoq gaplashdim. Qizning aytishicha, o'gay otasidan yomonlik ko'rmagan, aksincha o'z otasini esini tanigandan buyon ko'rmagani uchun unga nisbatan ichida mubham bir tuyg'u bor. Faqat bolalik orzulari, voz kechishni istamayotgan orzulari sabab otasi bilan ketishni judayam xohlayotganini o'tranib gapirdi. Men esa o'gay otasi, garchi onasi bilan ko'p ham murosaga kelolmasa-da, uni bolalikdan mehr berib katta qilganini (bir og'iz ham qattiq gapirmaganini o'zidan eshitganman), o'tgan ancha vaqt oralig'ida o'z otasi oila qurgani, bolaligidan mehr qo'yib ulg'aytirgan farzandlari borligi, agar qiz otasi bilan ketsa, o'gay ona uni qanday qabul qilishini oldindan bilib bo'lmasligini aytdim. Bordi-yu qiz otasi bilan ketib u yoqda qo'nim topolmay qaytib kelsa, uni bu yerda yaxshi kutib olmasliklari mumkinligini uqtirdim. Xulosa va qarorni faqat uning o'zi qabul qilishi lozimligini ham qo'shib qo'ydim. Bir necha kun o'tib o'quvchi qiz yana oldimga keldi va kichkina qog'oz parchasini uzatdi. U maktubida ketmaslikka qaror qilganini aytgandi. Maktub so'ngida shunday so'zlar bor edi: "Ustoz, sizdan juda minnatdorman. Faqat bu gaplar oramizda sir bo'lib qolsin. Axir do'stlar bir-birining sirini sotmaydi-ku".

Oradan 18 yil o'tib kichkina do'stim bilan oramizda bo'lib o'tgan gaplarni sizga aytgim keldi. Maqsadim — ustoz har bir o'quvchiga uning xarakteri, sharoiti, oilaviy muhitidan kelib chiqib yondashishi lozimligini, o'quvchining qalbini egallamay turib, uning ongini boshqara olmasligini aytish edi.

Zebuniso JUMAYEVA,
Qumqo'rg'on tumanidagi
11-IDUMning ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

Bolangizni ayamang!

Taraqqiyotning yuqori cho'qqisiga chiqib borayotgan dunyoning ko'p mamlakatlarida tarbiya masalasi eng muhim muammolardan biriga aylanmoqda.

Oilada to'qqiz farzand bo'lganmiz. Hozir o'ylab qaragam, biz uchun tarbiya vositasi mehnat bo'lgan ekan. Negaki, ota-onamiz ertalab ketib, kech tushganda uyga qaytishar, biz farzandlar ularning hurmatlarini joyiga qo'yib, har kuni bittamiz navbat bilan ota-onamizni kutib olardik. Har birimizning kunlik ishimiz adolat bilan yoshimiz va kuchimizga qarab taqsimlangan edi. Akam uchun solingan imoratning g'ishti-yu loyigacha o'zimiz qilganmiz. O'shanda

berilgan mehnat tarbiyasi bizni xalq ichiga olib kirdi. Ota-onamiz biz farzandlarning hayotda o'z o'rimizni topishimiz uchun shu yo'lni tutgan ekanlar.

Bugun ota-onalar farzandi uchun hamma sharoitni yaratib qo'ygan. Bolasining qo'li sovuq svuga tegishini istamaydi. Bolaga har qancha kuchli ta'lim bersangiz ham mehnat vositasida singdiriladigan tarbiyaning o'z o'rnini borligini unutmaslik kerak. Shuning uchun ham yuksak taraqqiy etgan Yaponiya

maktablarida o'quvchilar sinfnaxonalari o'zlarini tozalashga, maktab oshxonasida ham o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga o'rgatiladi. Ma'lum bo'lishicha, yapon maktablarida farroshlarga kam ish yuklatiladi. Tozalik, obodonlashtirish ishlaridan hech bir o'quvchi va uning ota-onasi bo'yin tovlamaydi. Afsuski, bizda buning aksi. O'qituvchi o'quvchisini salgina ortiqcha ishlatib qo'ysa oylab maktabga qadam bosmaydigan ota yoki ona ertasiyayoq muallimni "javobgarlikka tortishga" keladi. Bir o'ylab ko'raylig-a, farzandingiz uyda yer chopmaydi, hovli supurmaydi, qo'y-mol boqmaydi, ekin ekmaydi (ko'pqavatli uyda yashaydiganlar), hech bo'lmasa



Maktabga ishga kirganimning ikkinchi yili 5-sinf rahbarligini berishdi. Xursand bo'ldim, ularni xuddi uka-singillarimdek (chunki hali yosh edim) ko'rdim, mehr qo'ydim, hamma narsadan himoya qildim, yaxshi tarbiyalashga harakat qildim, keragida qattiqqo'l, kerak payti mehribon bo'ldim. O'quvchilarim va ularning ota-onalarining menga bildirayotgan munosabatidan anglardimki, ular mendan rozi edi.

Kutilgan mehr

Bir kuni...

O'quvchim Alisherning onasi og'ir kasallikka chalinganligi haqida eshitdim. Saraton ekan. Yosh edim, "borib xabar ol", deb hech kim maslahat ham bermabdi. Alisherning o'zi ham biron kun maktabga kelmay qolgani yo'q, shuning uchunmi, onasidan xabar olish xayolimga kelmabdi. Bir kuni dars payti sinf eshigi taqillab, ilmiy bo'lim mudiri xabar berdi: "o'quvchingizning onasi bo'lmabdi, astagina chaqirib uyiga javob berib yuboring, lekin aytmang, shu yerdan yig'lab ketmasin uyiga". Sarosimaga tushib qoldim. "Qanday javob bersam ekan?".

— Alisherjon, sumkangni olib tashqariga chiq, — dedim jiddiy qiyofada, xuddiki, uni biron ishga jo'natadigandek tasavvur qoldirish uchun. Tashqariga chiqqanidan keyin muloyimlik bilan: "Alisher hozir uyingga bor..." dedim. Ko'zlarida sezilar-sezilmas yosh qalqigan, qizargan, kipriklarini tez-tez pirpiratir, nima qilishini bilmasdi (aslida u tashqariga chaqirganimdayoq sezgan ekan). Bag'ringa bosgim, boshlarini silagim keldi, ammo hech birini qilolmadim, uni ovutishni uddalolmadim. — ...Onang o'g'irlashib qolibdi, bor yonida bo'l, — deya oldim xolos. U uchib uyiga shoshilmadi, negadir ko'zlarini pirpi-

ratib turib qoldi, mendan bir najot, dalda kutdi. Unga mehr kerak edi, ammo o'sha payt hali o'zim ham boladek ekanligim pand berdi. Uning kutganini berolmadim.

U ketdi va bir necha kundan keyin umuman boshqa odam bo'lib qaytib keldi. O'shandan keyin ko'zlarida menga nisbatan hech qanday tuyg'uni ko'rmadim. Na hurmat, na nafarat. Hozirgacha o'sha kuni hissiyotlarimni jilovlaganimdan afsus chekaman.

Yaqinda bir o'qituvchining gaplarini eshitib qoldim:

— Menga faqat shunday sinflar tushib qoladi, o'quvchilarning biri kambag'al, boshqasi bezori... Yoki yaxshi sinflarni oladigan o'qituvchilar direktor o'rinbosariga u-bu narsa berishadimi?

Men esa bu o'qituvchining mana bir necha yildirki hali biror sinf o'quvchilarining hurmatini qozona olmaganini o'yladim va dedim:

— Ular ham eng yaxshi, tarbiyali sinfga aylanishi va siz ular uchun eng qadrlil ustozga aylinishingiz mumkin, faqat o'zingiz oldin eng QIMMATli narsani ularga bera olishingiz kerak, azizim!

Ammo u tushundimi, uni ovutishni uddalolmadim. —

Gulbahor BERDIYEVA,
Kitob tumanidagi
16-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi



obodonlashtirish ishlarini maktabda o'rganishi foydadan xoli emasmi? Qadrlil ota-onalarimiz qani endi shular haqida ham bosh qotirib ko'risha deb ko'p o'ylayman. Axir ota-ona butun umr farzandiga hamma narsani muhayyo qilib bera olmaydi, shu sabab ham ular mehnatni qancha erta o'rgana boshlashsa, shuncha yaxshi. Qolaversa, inson mehnat

bilan hayotning qadriga teranroq yetadi. Har bir crishgan narsasining qiymatini baland qo'yishni o'rganadi. Farzandlarimizga ana shunday imkoniyatlarni tuhfa etish uchun ularni ayamaylik, mehnat bilan tarbiya qilaylik.

Dilnoz ERGASHEVA,
Qorako'l tumanidagi
15-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Ko'rsat, eslab qolaman

Ta'limni rivojlantirishda sun'iy intellektning o'rnini

2020-yilning birinchi yarmi nafaqat ishga bo'lgan yondashuvimizni, balki dunyoni ham tubdan o'zgartirdi. Yo'llarda ko'plab robotaksi va haydovchisiz yuk mashinalarini hali ko'rmasak ham, COVID-19 pandemiyasi barcha sohalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni tezlashtirdi.

“Forbes” jurnalining fikriga ko'ra, Amerikaning eng istiqbolli 50 ta sun'iy intellekt sohasidagi kompaniyalari ro'yxatiga kiritilgan startap asoschilari allaqachon kelgusida ularning sohasi qanday o'zgarishi haqida turli taxminlarni bildirmoqda. Ularning aksariyati COVID-19 pandemiyasi sun'iy intellekt texnologiyalarining tarqalishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi degan fikrda.

Sun'iy intellekt ta'lim sohasini ham chetlab o'tmay qolmadi. «Sun'iy intellekt ta'lim sohasini jiddiy ravishda o'zgartiradi, o'qitish usullari, ta'lim olish imkoniyati va o'qituvchilarni tayyorlash tubdan isloh qilinadi», deydi UNESCO bosh direktori Odri Azule.

Sun'iy intellekt (SI) ta'lim olish uchun to'siqlarni kamaytirish, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va o'quv natijalarini yaxshilash usullarini optimallashtirish orqali global ta'lim maqsadlariga erishishni tezlashtirish imkoniyatiga ega. Masalan, Rusbase saytida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Xitoyning Xanchjou shahridagi maktab «Squirrel AI» kompaniyasi bilan hamkorlik qilishni boshlaguniga qadar Chjou I ismli o'qituvchining matematika fanini o'zlashtirishida jiddiy muammolar bo'lgan. «Squirrel AI» kompaniyasi maktabga sun'iy intellekt tomonidan ishlab chiqilgan individual dasturlarni taklif etdi. Natijada o'qituvchi o'rnida darslarni algoritmlar nazorat qilib turgan. Semestr oxirida Chjouning test natijalari 50 foizdan 62,5 foizga ko'tarilgan. Ikki yil o'tib matematika fanidan imtihon topshirganda bu o'qituvchi 85 foiz to'g'ri javob bergan.

Ko'p yillar davomida o'qituvchilar har bir o'quvchiga individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yordam berish bilan band edilar. Bu, ayniqsa, yigirma, o'ttiz yoki qirq o'quvchilik sinflarda juda qiyin, ularning har biri, shaxsiy imkoniyatlaridan qat'i nazar, standart sinovlardan o'tishlari kerak.

So'nggi 50 yil ichida maktablar deyarli o'zgartirildi. Turli salohiyat va darajaga ega bo'lgan o'quvchilar bitta sinfda, bitta darsda o'tirishadi va muayyan mavzudagi muvaffaqiyatlaridan qat'i nazar, bir xil darsliklardan foydalanib bir xil topshiriqlarni bajarishadi. Sinfning bir qismi materialni o'zlashtirishga vaqt topolmaydi, boshqasi esa tezda o'zlashtirib, zerikishni boshlaydi.

SI bu muammoni hal qilishga qodir. Hozirgi kunda u o'qituvchilarga o'quv jarayonini individuallashtirishga yordam beradi: buning uchun algoritmlar o'quvchi davomati va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali muammo-

li joylarni aniqlaydi va bilimlardagi bo'shliqlarni to'ldirish uchun yakka (individual) darslarni yaratadi. Bundan tashqari, ushbu tahlil orqali SI o'qituvchilarga o'quvchilarning qobiliyati va salohiyatiga qarab maxsus yoki individual o'quv dasturlarini tuzish imkoniyatini ham bera oladi.

O'quvchilar maxsus dasturlardan foydalangan holda yangi narsalarni qulay sur'atlarda o'rganish imkoniyatiga ega bo'lalilar. SI o'quvchilar uchun o'ziga xos o'qituvchiga aylanaadi va ularning salohiyatlarini maksimal darajada ko'rsatishlariga yordam beradi.

SI o'qituvchi-repetitor bo'lishi mumkin. SI har doim o'quvchi yonida bo'ladigan ustoz bo'lishi mumkin. Bunday mobil ilovalar istalgan vaqtda foydalanish va tushunarsiz mavzuni turli usullar yordamida qayta tushuntirib, o'quvchiga o'rganish imkonini beradi.

Hozir bir qator repetitor-ilovalar ishlab chiqilib, dunyodagi minglab o'quvchi va o'qituvchilar orasida juda ommalashgan.

«Brainly» ilovasi — ijtimoiy tarmoq bo'lib, u yerda o'quvchilar maktabdagi topshiriqlarni muhokama qilish orqali o'zlashtirishlaridagi bo'shliqlarni to'ldirish imkoniga egadirlar.

«Thinkster Math» ilovasi — matematika fanidan repetitor-ilova bo'lib, u standart o'quv dasturini o'z ichiga olib, har bir foydalanuvchi uchun fanni individual o'rgatish uslubiga egadir. Shuningdek, bu ilova video va tezkor javoblar yordamida matematik misollarni bosqichma-bosqich yechish va o'quvchida matematik qobiliyatlarni rivojlantirishni taklif qiladi.

«Netex Learning» ilovasi — o'qituvchilarning interaktiv audio va video materiallarni darslarga qo'shishiga yordam beradi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi mutaxassislari tomonidan o'tgan yili umumta'lim maktablari uchun yaratilgan 8-sinf geografiya darsligi birinchi innovatsion darslik sifatida maktablarda o'qitilib kelinmoqda. Mazkur darslikning an'anaviy darsliklardan farqi shundaki, darslikka joylashtirilgan QR-kod belgilari orqali darslikka kiritilgan qo'shimcha materiallarni eshitish va ko'rish imkoniyati mavjud. Bu dastur orqali hatto boshlang'ich texnik ko'nikmalarga ega bo'lgan o'qituvchilar ham turli xil raqamli platformalar va qurilmalar uchun o'z o'quv dasturlarini yaratishlari mumkin bo'ladi.

SI, shuningdek, bilimlarni baholash tizimini avtomatlashtira oladi. Uy vazifalari va testlarni tekshirish, hatto tajribali o'qituvchilar uchun ham ko'p vaqt oluvchi va murakkab hisoblanadi.

O'qituvchilar uyga vazifa yoki imtihon natijalarini tekshirishga ketadigan vaqtni darsga tayyorlanish va o'quvchilar bilan faol aloqa qilishga sarflashni ma'qul ko'radilar. SI sohasidagi yutuqlar buni amalga oshirishga qodir.

Albatta, bilimlarni baholashni avtomatlashtirishda kamchiliklar mavjud. Bu tizim samarali ishlashi uchun barqaror internet aloqasidan tashqari yaxshigina mablag' ham kerak bo'ladi, chunki bunday algoritmlar arzon turmaydi. SI hech qachon o'qituvchi bahosining o'rnini bosolmasa-da, lekin unga ancha yaqin bo'la oladi. Eng asosiysi, o'qituvchining vaqti tejaladi. Baholash va dars jadvalini tuzish kabi oddiy vazifalarni avtomatlashtirish orqali o'qituvchilar unga sarflanadigan vaqtlarini o'quvchilar bilan muloqot qilish uchun ajratishlari mumkin bo'ladi.

Kelgusida SI o'rnatilgan etalon va metrikalarga asoslanib yozma ish va imtihon topshiriqlarini to'liq tekshira oladi. Bunday baholashda tarafdashlik va favoritlarga boshqacha nazar bilan qarash degan tushunchalar bo'lmaydi. Shu bilan birga, bunday baholashda o'zlashtirish past bo'lgan o'quvchining harakati uchun rag'bat ham bo'lmaydi. Bu SIning salbiy tarafi hisoblanadi.

SI o'quvchilar xatti-harakatini ham tahlil qilishi mumkin. SI kameralari ishtirokchilarni avtomatik ravishda kuzatibgina qolmay, o'quvchilar xatti-harakatlarini ham tahlil qilishi mumkin. Bunday dasturlar o'quvchining turli xil mavzu va vazifalarga qanday munosabatda bo'lishini, qanday qilib sinfdoshlari bilan hamkorlik qilishini, yolg'iz ishlashini, chalg'ish holatlarini va boshqalarni tahlil qila oladi.

Va nihoyat, SI ta'lim tizimini takomillashtirishi mumkin. Bir o'qituvchi hech qachon 30 yoki undan ortiq o'quvchisi bor sinfning ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bunday vaziyatlarda ta'lim jarayoniga SIga asoslangan ilovalarni joriy etish ta'lim sifatining pastligi va chekka hududlargacha yetib borishi va hozirgi kunda tizimdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga yordam bera oladi.

Bu borada Innovatsion rivojlanish vazirligi tashabbusi bilan Farg'ona shahridagi maktablarda «Aqlli maktab» dasturi orqali sun'iy intellekt joriy etildi. Mazkur dasturning ta'lim tizimiga joriy etilishi bir qancha afzalliklarni berdi. Jumladan, bilim sifatini avtomatik tarzda baholash, maktablarda o'qituvchilarning vaqtini tejash; qisqa fursatda o'quvchilar, fanlar, mavzular, sinflar kesimida ta'limdagi bo'shliqlarni aniqlash; o'quvchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishlarini tahlil qilib borish va boshqa bir qancha imkoniyatlarni yaratib berilmoqda.

Ta'lim sohasida sun'iy intellektning tor qo'llanilishiga misol — matnli faylni ovozi faylga aylantirish orqali podkastlarni yaratish. Shuningdek, siz bilimlarni yanada obyektiv baholashingiz mumkin: javob variantlarini tanlamay, balki ovoz

bilan javob berish imkoniyatini berish orqali. Bunday javob SI tomonidan qayta ishlanadi va sharhlanadi. Ro'yxatdagi bitta variantni tanlash kerak bo'lganda, siz tasodifiy javob berasiz, biroq aniq javobni o'zingiz berishingiz kerak bo'lganda, darsdagi ma'lumotni eslab qolishingiz kerak bo'ladi. Shuning uchun ham biz bir nechta javobli test tizimidan miyani faol ravishda jalb qilishga imkon beradigan SIga o'tishimiz kerak.

Adaptiv ta'lim har bir o'quvchiga o'ziga xos shaxs sifatida qarashni ta'minlaydi. Masalan, siz til o'rganyapsiz va bir haftalik ta'tilga chiqishga to'g'ri kelib qoldi. Qaytib kelganingizda, dastur ba'zi ma'lumotlarni allaqachon unutganingizni bilib oladi.

Sidan ta'limda turli tovlamachiliklarning oldini olish maqsadida ham foydalanish mumkin. Masalan, mashg'ulotlar boshida paragrafni yozaman va dastur mening shaxsiy harf terish xususiyatlarimni eslab qoladi. Uch oydan keyin imtihon topshirish uchun o'tirganimga, tizim mening harf terish xususiyatimga qarab imtihonni aynan men topshirayotganimni aniqlay oladi, o'ringa birov kelib imtihon topshira olmaydi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt ta'limga quyidagilarni taklif qila oladi:

— ta'lim sohasida Sidan ommaviy va adolatlil foydalanishni ta'minlash, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy holati, jinsi va etnik kelib chiqishi, geografik joylashuv bilan bog'liq tengsizliklarni bartaraf etish; aholining zaif qatlamlari sifatli ta'lim olishidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun muvaffaqiyatli loyihalarni yoki sun'iy intellektdan foydalanishni tasdiqlangan samarali usullarini aniqlash;

— ta'lim berish va olishni takomillashtirish uchun sun'iy intellektdan foydalanish — ta'limni boshqarish tizimlarini, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlaydigan va ta'lim muammolarini hal qila oladigan individual ta'limning yangi shakllarini yaratish;

— ta'lim ma'lumotlaridan shaffof va nazorat ostida foydalanishni ta'minlash — ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog'liq xatirlarni kamaytirishni nazarda tutadi; hisobotni kafolatlaydigan siyosatni ishlab chiqish uchun ishonchli ma'lumotlarni aniqlash va targ'ib qilish hamda barcha manfaatdor tomonlar uchun ta'lim sohasida aniq va shaffof algoritmlarni yaratish.

Kelgusi yillarda ta'lim sohasidagi sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi ta'lim jarayonining barcha elementlarini istisnosiz boshqaradigan yaxlit avtomatlashtirish tizimlari bo'ladi. Endi klassik tarzda o'qiladigan ma'ruzalarga hojat qolmaydi. Qadimgi olimlardan biri shunday degan edi: «Menga ayt va men unuttaman, menga ko'rsatgin va men uni eslab qolaman».

Jahongir MUSAYEV,
Innovatsion rivojlanish vazirligi
Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'limi boshlig'i

O’qituvchi kundaligidan

Sinf rahbarining bir kuni...

Nigora maktabdagi kundalik ishlarini yakunlagach, uyiga odatdagidan ertaroq qaytdi. Yo’l-yo’lakay ro’zg’or yumushlarini rejalashtira boshladi: “Anchadan buyon nimadir sabab bo’lib, kech qayt yapman. Bolalarim tezpishar taomlardan zerikdi, chog’i. Bugun ularni bir xursand qilay, somsa tugsammikan yoki manti qilsammii?”

Baxtinga oiladagilar meni tushunadi, injiqlik qilmaydi”. O’zini baxtli oila davrasida tasavvur qilgan Nigora beixtiyor jilmayib qo’ydi. Shu tariqa uyiga qanday kelganini ham bilmay qoldi. Yelkasidagi butun tashvishlarini ulotirishga muvaffaq bo’lgan o’qituvchi-ayol bir zumda mehribon ona, pazanda bekaga aylandi-qoldi. Turmush o’rtog’i ishdan kelguncha farzandlari bilan hammayoqni saranjom-sarishta qilishga ulgurdi. “Ochil dasturxon” muhayyo bo’ldi.

Issiqlik taomni olib kirgan Nigora darvozaning qattiq-qattiq taqillaganidan xavotirga tushdi: “Tinch bo’lsin-da, ish qilib”. Turmush o’rtog’i kim kelganini bilib qaytguncha xayolning turli ko’chalariga kirib chiqdi. “Bor, seni chaqiryapti, ota-onalaring uyda o’tirganday ham qilmaydi, qanday ish bo’ldi bu?” — birinchi marta noroziligini ochiqdagan eriga javob bermay, ko’chaga otildi. Xavotiri o’rinliga o’xshaydi, kech bo’lishiga qaramay biror o’quvchisi uyiga bormagan yoki kim bilandir urishdимиkani? Qisqa muddatda Nigoraning aft-angori o’zgardi, ko’zlaridan faqat tashvish, xavotiri o’qish mumkin edi. Ochiq turgan darvoza tabaqasidan o’quvchisi Ruksoraning onasi ko’rindi. Salomdan avval uzrini bayon eta boshlagan ona birdan yig’lab yubordi. “Yana qizi bilan tortishibdi-da,” o’yladi Nigora. Bafurja gaplashish uchun onani uyiga taklif qildi va uydagilarga uni kutmasdan ovqatlana-verishlarini aytib, izinga qaytdi.

Ruqsoralor oilada besh qiz. Ikkinchi qizining har kungi xarxashalari-yu, jiz-zakiligiga chidolmagan ona bugun ham urishgan shekilli, ovozidan hali ham asabiy ekani ko’rinib turardi. Nigora bosiqlik bilan nima bo’lganini so’radi. Ona bo’lgan voqeani bir boshidan gapirdi.

— Uch kun bo’ldi, qizim men bilan gaplashmaydi. Nima qilsam ham ko’nglini topolmadim. Hamma narsadan kir axtaradi. Opasini kollejga qo’ygandim. O’qishga kirolmadi, bu yil repetitora berdim. Ko’proq yangi kiyimlarni shu katta qizga olib beraman, singillari ham kiyadi deyman. Topgan gapi: qolgan qizlaringizni yaxshi ko’rasiz, ayganini muhayyo qilasiz, menga e’tibor qaratmaysiz, deydi. Nima qilay, otasining bir o’zi ishlaydi, imkoniyatimiz bo’lsa, hamma sining ayganini qilmasmidik?! Bugun darsdan shosha-pisha keldi-da, qo’shni qiz bilan chiqib ketdi. Qayerga ketayotganini so’rasam, dadasiga qarab: “Ustozimiz to’garakka chaqirgan”, dedi. Kichik qizim sizning uyga qaytlayotganingizni ko’rib, opasining hali ham kelmaganini aytdi. Sizga qayta-qayta qo’ng’iroq qilib, bog’lanolmadim. Haytovur, kelib qoldi. Qistovga olib so’rasam, kimyo ustozining yoniga borganini aytib, zarda bilan ichkariga kirib ketdi. Uning yolg’on gapiryotganini sezib turibman. Qizlarim katta bo’lgan sayin qo’rqayman. Siz belgilagan soatdan ham kech keladi, gapimga quloq osmaydi. Ustoz, qizim sizni aytam, biroz tinchlanadi. Uyimizga yuring, qayerga borganini bilaylik.

Nigora yo’l-yo’lakay onadan qaysi qo’shni qiz bilan ketganini so’radi va uni tinchlantirishga urindi.

— Ruksora aqlli qiz, maktabda yaxshi o’qiydi, vaqtini behuda yo’qotmaydi. Mana, ko’rasiz, rostdan ham kimyo ustoziga chaqirgandir. Qolaversa, siz aytdan qo’shni qiz ham maktabimizning eng tarbiyasi, bilimdon qizlaridan. Shunday deyapti-yu, bugun sinfga kimyodan to’garak yo’qligini o’ylab, o’quvchi-qizning yolg’on gapirganidan ko’ngli g’ashlandi.

Ruksora ustozini ko’rib, boshini quyi soldi. Onasi baqira ketdi:

— Qani, ustozingga ham yolg’on gapirib ko’r-chi? Ayt endi, shu paytgacha qayerda eding? Uyga bir tiyinlik foydang tegmaydi. Qo’shni qizga qo’shilma, deyman senga.

Ruksora onasining gapiga javoban og’iz juftlamochi bo’ldi, ammo ustoz borligi uchun indamadi. Ona yana asabiylashib qo’pol so’zlarni ishlata boshlagan edi, Ruksora Nigoraning bag’riga otildi:

— Ustoz, sizga nima degandim?

Onasiga qizi bilan yolg’iz qolishini aytib, o’quvchisi bilan dildan suhbatlashdi.

— Qizim, nega onangga behurmatlik qilyapsan? Bugun to’garaging yo’q ediku, seni nima majbur qildi yolg’on gapirishga. Maktabda hamma senga havas qiladi, odobing, o’qishing bilan o’rnaksan. Lekin oxirgi paytlar, yosh ustozlardan biriga gap qaytaribsan. Nima bo’lyapti o’zi? Qani, bir ikkalamiz dardlashaylik-chi? O’quvchisining javob bermay jim turishga qo’yib berdi. Ruksora birotdan so’ng gap boshladi:

— Ustoz, onam meni boshqa qizlariday yaxshi ko’rmaydi. Bir kuni arazlab xolamnikiga ketdim. O’sha kuni isitmadim. Xolam onamni chaqirdi, ammo kelmadi, hatto holimni ham so’ramadi. Dars qilib o’tirsam, “Sen opangga hasad qilyapsan, agar yaxshi qiz bo’lsang, uyning ishiga qarashardim”, dedi. Nima ish qilsam, xato topadi, faqat urishadi. Qo’shni qizlar bilan gaplashgani yo’ymaydi. Ularga ham baqirganida xijolat bo’lib ketaman. Uyda turgim kelmaydi, ustoz. Maktabdan kech kelishimga sabab ham aslida shu. Bugun ham darsdan kelishim bilan javray boshladi. Uydan chiqib ketishga bahona izladim. So’ng Nafisa bilan qo’shimcha o’qishiga borib keldik. Ustoz, meni kechiring!

Nigora nima qilishini bilmay qoldi. Ona-bolani yarashtirish yo’lini o’yladi. O’tgan kuni qizlardan biri Ruksoraning jiz-

zaki bo’lib borayotganini aytib, u har kuni uyidan tushkun kayfiyatda kelishi, maktabda g’ala-g’ovurdan ovunishi, dars tugagach, uyga qaytgisi kelmasligini aytdi. Shundan so’ng, qiz bilan yaqindan suhbatlashib, maktab psixologiga uchrashtirdi. Yaxshi kayfiyatda uyiga kuzatdi. Ikki-uch kun xattiharakatini, darsdagi ishtirokini zimdan kuzatib, xavotirga o’rin yo’qligini anglagandi.

Aslida muammo qizning uyidagi aholat bilan bog’liq ekan-da. Nigora birdan sergak tortdi: Ona bilan suhbatlashishim kerak! U Ruksoraga ona dunyodagi eng aziz inson ekanligini, ularning tanbehilari ham aslida mehrga to’la qalbi borligidan xabar beruvchi bir necha hayotiy voqealarni aytib berdi. Qizni onasini to’g’ri tushinishga undadi. So’ng onasini chaqirib yuborishini so’radi. Bu paytga kelib ona ancha o’zini idora qilgan bo’lib, Nigoradan kech bo’lganda bezovta qilgani uchun qayta-qayta uzr so’radi. Nigora istihola bilan gap boshladi:

— Bilasizmi opa, sizning farzandingiz — mening ham bolam. Shuning uchun yosh bo’lib aytam ham gapimni og’ir olmang. Ruksoradagi muammo faqat oilasi bilan bog’liqqa o’xshaydi. Opajon, o’zingiz aytdingiz-ku, qizim kichikligida ko’p kasal bo’lgan, deb. Balki shuning uchun ham e’tibortalab bo’lib qolgandir. Hozir sizning mehringiz hammasiga bo’linayotganini u qayoqdan ham bilsin? U sizni juda yaxshi ko’radi, hozir menga aytdi, sizdan ko’proq mehr istayapti, xolos. Keling, opajon, qizingizni o’sha go’dakligidagidek suying, erkalang, bag’ringizga bosing, iltimos. Do’st bo’lib ko’ring. Bolalingizni aytib bering. Nima uchun xavotirlanishingizni mehr bilan tushuntiring. Mana ko’rasiz, hamma aytdanlaringizni bekam-u ko’st qiladi.

Onaning ko’zidan yumalab tushgan yosh vaziyatning yumshaganini angladi, eshikdan sekkin Ruksoranini chaqirdi. Onasidan kechirim so’rashini qulog’iga shishitib, o’zi ko’chaga chiqdi. Vaqt allamahal bo’lganini unutgan Nigora g’amgin kayfiyatda uyiga yo’l oldi...

Oddiygina ko’ringan sinf rahbari vazifasining yukini uning bir kuni misolida ko’rdik. Siz nima deysiz, aziz hamkasb?

Dildor NURMUHAMMEDOVA, o’qituvchi

Bir kekxa donishmandning uyi tog’ning etagida, soya-salqin yerda joylashgan ekan. Bir kuni daladan kelsa, kelini daraxt ostida bolasini beshikda tebratib yig’layotgan ekan. Shunda chol bu yig’ining sababini so’rabdi. Kelini unga “tog’dan tosh dumalasa, uning ostida qolib ketamiz” deya yig’lashda davom etibdi. Shunda chol har narsadan hadiksiramalikni aytibdi va o’sha tosh ziyon yetkazmasligi uchun ehti-yotimizni qilishimiz lozim, deya tushuntiribdi.

Rahbarlik qilayotgan sinfimdagi bir o’quvchi juda qo’pol, jahldor, hatto oddiy narsaga ham asabiylashadigan bola edi. U bu holati bilan yon-atrofidagi bolalarga ham o’z ta’sirini o’tkazardi. Bir kuni o’quchilarimga topshirik berdim. Hamma uyiga borib onasini quchib: “Men sizni yaxshi ko’raman”, deyishlarini tayinladim. Ertasiga esa onasining shu vaziyatdagi

holatini tasvirlab berishlarini so’radim. O’quvchilarim navbat talashib, labi labiga tegmay gapirishdi. Jahldor o’quvchim jim, qog’ozga tushunarsiz nimalarnidir chizardi. Bu holat bir necha bor takrorlangani sababli onasi kelishini so’rab, taklifnoma yozdim. Onasi kelmadi. Darsdan so’ng uylariga bordim. Ota-ona janjal aralash suhbat qilishayotgan ekan. Qush uyasida ko’rganini qila-

O’quvchi jahldor bo’lsa...

di. Albatta bunday holat bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir o’tkazadi. O’quvchimning onasi bilan uzoq suhbatlashdim. Shunda topshirikimni qanday bajarganini so’radim. Suhbatimizdan tushunib yetdimki, o’quvchim bu haqida onasiga aytmagan ham. Ularnikiga tez-tez boradigan bo’ldim. Bir safar borganimda o’quvchimning onasiga ota-onalar yig’ilishini o’tkazishimni va albatta qatnashishi lozimligini aytdim. Yig’ilishga keldi. Ota-onalarga vaqtida bolaga yaxshi gapirilmasa, qo’pollik qilinsa, bu holatlar qanday oqibatga olib keli-

shi aks etgan videoroliklarni ko’rib berdim. Ishtirokchilar o’rtasida test so’rovnoma o’tkazdim. O’quvchilarimning “Mening oilam” mavzusida chizgan rasmlarini onalari-ga berdim. Ota-onalarni dars mashg’ulotlarida qatnashishga taklif qildim. Bir kuni darsga o’sha o’quvchimning onasi kelgan ekan. Shunda bor imkoniyatimni va mahoratimni ishga solib, o’quvchimni faollikka undadim. Dars so’ngida “Onamga guldasta” mavzusida chizgan rasmlarini onalari-ga berishlarini aytdim. Onasining yuzidagi tabassumni ko’rgan farzandning o’ziga ishonchi

yanada ortdi. O’quvchim bilan bir necha marta mashg’ulotlar o’tkazdim. Hozir u eng faol, tirishqoq, alochi o’quvchilardan biriga aylandi. Hatto o’tdan yili bir dasta chiroyli gullar bilan meni maktabimiz ostonasida qarshi oldi. Shunday ekan, bolaga keragida mehr, o’qishiga kitob beraylik, vaqtida e’tibor ko’rsataylik. Toki tarbiya qilayotgan farzandlarimiz yurt koriga yaraydigan komil inson bo’lib voyaga yetishsin.

Sharbatoy SHOMURODOVA, Pitnak shahridagi 9-maktabning boshlang’ich sinf o’qituvchisi

"Mukofotlaringiz bo'lmasa, vaqtida yaxshi ishlamabsiz" degan ta'na bu maktubni yozishga majbur etdi.

"Ma'rifat" gazetasiga ochiq xat

Hurmatli, sevimli gazeta! Sizga Navoiy viloyati Nurota tumanidagi 43-maktabda uzoq yil o'qituvchilik qilib, 38 yil staj bilan, imtiyozli ravishda (55 yoshimda) 2002-yili birinchi sentabrdan boshlab nafaqaga chiqqan, 73 yoshli pensioner Abdunazar Nabiyeu bu maktubni yozmoqda.

1969-yili SamDuning o'zbek va tojik filologiyasi fakultetining tojik tili bo'limini bitirib, qishlog'imizdagi 43-maktabda ish boshladim. Bu kasb ota kasb bo'lganligi uchun doimo yangiliklar orqasidan chopib, o'zlashtirib, amalda joriy etib kelganman. Har bir darsni samarali o'tish uchun barcha davr talabida amalda joriy bo'lgan uslublardan ijobiy ravishda foydalanman. Savol-javob, matematik raqamlar orqali grammatik tahlillar, muammo, bayon(ma'ruza), musobaqa va boshqa uslublardan foydalanib muvaffaqiyatlarga erishganman. Natijada barcha o'quvchilarim oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini (inshoni) "4", "5" baho bilan topshirganlar. Uch o'quvchim sohamizda fan nomzodi bo'lgan. 1989-yilgacha shogirdlarim tuman va viloyat ko'rik-tanlovlarida qatnashib, imtiyozli o'rnlarni egallagan.

1989-yili respublikamizda tojik tili va adabiyoti bo'yicha olimpiada joriy etildi. O'sha yildan boshlab 1995-yilgacha mazkur olimpiadada doimiy hay'at a'zosi bo'lib, o'quvchilarimdan bir yoki ikki nafari bilan qatnashganman.

1990-yili Samarqandda o'tkazilgan olimpiadada 11-sinf o'quvchisi M.Amonova ikkinchi o'rinni egalladi. 1991-yili Buxoroda 11-sinf o'quvchisi Dilorom Xalilova ikkinchi o'rinni egallab, oliy o'quv yurtiga imtihonsiz kirishga muvaffaq bo'ldi.

Dilnoza Rahmatovani 5-sinfdan boshlab olimpiadaga tayyorladim. U 9-sinf bo'lganida nafaqaga chiqdim. Nafaqa davrimda yana ikki yil mazkur o'quvchini tayyorladim. Natijada 2004-yili Toshkentda bo'lib o'tgan olimpiadada ikkinchi o'rinni egallab, SamDuning tojik filologiyasi fakulteti talabasi bo'ldi va a'lo baholar bilan bitirdi. Bundan tashqari, 1992-2002-yillar davomida Respublika tojik tili olimpiadasida viloyat jamoasidan o'quvchilarim Sh. Sayfulloyev, S.Haydarov, X.Nurnazorova, N.Solihov, L.Alimov, Z.Qo'rg'onov qatnashib, o'n jamoa orasida uchinchi va

to'rtinchi o'rinlarni egallab kelgan.

1969-yildan boshlab matbuotda, asosan, "Haqiqati O'zbekiston"(hozirgi "Ovozi tojik") gazetasida birin-ketin maqolalarim chiqqa boshladi. 1993-yili mazkur gazetaning "jamoatchi muxbir" guvohnomasini olganman. Tumanda chiqadigan "Ilg'or chorvador" ("Nurnoma") gazetasida ham, Samarqand viloyatida chiqayotgan "Ovozi Samarqand" da ham muntazam ravishda maqolalarim bosilgan. Mazkur gazetalarda asosan publitsistik, ilmiy, metodik va qishloq xo'jaligidagi yangilik va o'zgarishlar to'g'risida 100 dan ortiq maqolam bosilib chiqqan. Muntazam ravishda sohama taalluqli gazeta va jurnallarga obuna bo'lib, ta'lim va tarbiyaga bog'liq kitoblarni o'qib, o'z kasbim va bilimimga sayqal berib kelganman. Ishlab turgan davrimda har yili avgust oyidagi tuman o'qituvchilar kengashlarida, metodbir-lashmalarda bir qator ilmiy va metodik mavzularda ma'ruza o'qiganman. 1994-yili pedagogik o'qishda "Bolalarda iroda qobiliyatini takomillashtirish" mavzusiga tayyorgarlik ko'rib, viloyat bosqichigacha chiqdim. Ammo viloyat XTB xodimi Majid Saidov "Dasturda tojiklar uchun hech nima deyilmagan", deb ishimni qaytardi. Mazkur mavzuni maqola sifatida "Ovozi Samarqand" gazetasiga yubordim, bosilib chiqdi. 1994- hamda 1997-yillarda "Ovozi tojik" gazetasi o'qituvchilar o'rtasida ko'rik-tanlov e'lon qildi. Ishtirok etdim va birinchisi(1994 yil)da ikkinchi, ikkinchisida birinchi o'rinni qo'lga kiritganman.

Doimiy ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashganman. Jumladan, ikki marotaba Tojikiston markaziy malaka oshirish institutida o'qiganman. 1987 yil dekabr oyida Tojikiston markaziy malaka oshirish institutiga o'z xohishim va o'z hisobim bilan borib kursda o'qidim. Darsliklar mualliflari bilan savol-javob qilib, ba'zi muammolarni hal qildik.

O'zimga emas, qadrimga yig'larman.
(Xalq maqoli)



O'qituvchilik faoliyatimdagi ishlarim maktab va tuman miqyosida omalashtirilgan. 1995-1997-yillarda tuman XTBda metodist bo'lib ishlaganman va o'z xohishim bilan bu vazifani tark etganman.

Maktabdan tashqari qishlog'imizdagi barcha to'y-ma'rakalar, yig'ilish, musobaqalar, ota-onalar majlislarida va boshqa tadbirlarda faol qatnashib, tashkiliy ishlarni yo'lga qo'yib, ta'lim, tarbiya, axloq mavzularida ma'ruza o'qiganman. Uyimda shaxsiy kutubxonam bor. Unda tojik, o'zbek va rus tillarida 300 dan ortiq badiiy va ilmiy kitoblar mavjud. 1969-yildan boshlab obuna bo'lganlarim gazeta va jurnallarni taxlam qilib qo'yanman. Kutubxonamdan qishloqdoshlarim va maktab o'quvchilari muntazam foydalanib kelmoqda.

1978-yili A.Rudakiy nomidagi tojik tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot institutining fan doktorlari B.Shermuhammedov va A.Ro'ziyev qishlog'imizdagi xalq og'zaki ijodiyoti namunalari yozib olish uchun uyimizda mehmon bo'lgan. Fan nomzodi B.Berdiyev esa shevashunoslik bo'yicha qishlog'imizda mehmon bo'lgan. Mazkur olimlar bilan birga ishlaganman.

1980-yillarning avvalida O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, san'atshunos olim - Fayzullo Muzaffarov etnografiya ishlari bo'yicha shogirdlari bilan uyimizda mehmon bo'lgan. Ularga yaqindan yordamlashganman. 1985-yili Tojikiston Fanlar akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori Ahror Muxtorov shogirdlari bilan uyimizda mehmon bo'lgan va tadqiqot ishlarida meni ham ekspeditsiya hay'atiga qabul qilgan. O'tgan asrning 80 va 90-yillarida binokorlik bo'yicha fan doktori, professor D.Nozirov bilan birga haftalab tog'lararo aylanib, tadqiqot o'tkazganmiz.

Mazkur olimlarning ilmiy asarlarida mening faoliyatim ham qayd qilinib, mualliflarning minnatdorliklari bayon etilgan. Ba'zi kitoblariga suratim ham kiritilgan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, yozuvchi va tarjimon Y.Imomnazarovning "Dehai zarzez"("Tilla qishloq qissasi" - Toshkent-2016) kitobida qishlog'imizdan

yig'ilgan xalq og'zaki ijodi namunalari va mening ham she'rlarimdan namunalari rasmim bilan chop etilgan. O'zimning 2010-yilda "Toshkent" nashriyotida ikkita kitobcham: "Sarzamine dar domanako'h"("Tog' yonbag'ridagi qishloq") - tarixiy risola va "Rahovardi ko'histon?"("Tog'da yashovchining sovg'asi") she'rlar to'plamim nashr etildi. Bugungi kungacha ijod qilyapman va ijod namunalari ba'zida matbuotda chop etilyapti.

2003-yil dekabr oyidan 2008-yil dekabr oyigacha (ikki navbat) mahalla raisi vazifasida ishladim. 1971-yildan to 2019-yilgacha respublikamizda qancha saylov bo'lgan bo'lsa, qariyb hammasida uchastka saylov komissiyasi kotibi, raisi yo a'zo bo'lib qatnashganman. 2006-yili "Ikki daryo oralig'i" teleko'rsatuvida qishlog'imizning tog' tepasidagi "Fo'jak" nomli toshqo'rg'on tarixi bilan tinglovchilarni tanishtirganman.

Hurmatli "Ma'rifat"! Xatimga shu yerda nuqta qo'yaman. Ko'nglingizda: "Bu xatni bizga yuborishdan maqsad nima?" degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga sabab yillar davomida samarali faoliyat ko'rsatgan bo'lsam ham, maorif sohasidan biron rag'batlantirish, mukofot olmaganman. Maktab ma'muriyati va tuman XTB tomonidan hech qanday iltifot ko'rganim yo'q. Ishlab turgan vaqtimda ham, nafaqaga chiqqanimda ham hech qachon bu haqda o'ylagan emasman. Ba'zan suhbatlarda yo o'quvchilar bilan uchrashuvlarda mendan so'raydilar: "Qanaqa mukofotlaringiz bor?". "Mening mukofotlarim turli sohada ishlab turgan o'quvchilarim", deb javob berar edim.

Yaqinda bir suhbatda mas'ul shaxs tomonidan aytilgan: "Mukofotlaringiz bo'lmasa, vaqtida yaxshi ishlamabsiz" degan ta'na bu maktubni yozishga majbur etdi. Maktubni yozib, avvali kimga yo qaysi tashkilotga yuborish haqida anchagina o'ylab qolib, oxiri Sizga, hurmatli gazeta, yuborishga ahd qildim. Sizdan hech qanday talabim yo'q. Faqatgina "dard"imni aytib, yengillashishni xohladim.

Abdunazar NABIYEV

Nurota tumani



“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 2-varianti

ONA TILI

(5-sinf: 54–94-betlar)

1. Inson aqli yozuvday mukammal aloqa vositasini kashf qilguncha uzoq izlangan.

Ushbu gap haqidagi hukmlardan qaysi biri noto'g'ri?

A) bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovush birikmalari soni 27 ta

B) gapdagi til orqa undoshlari bilan chuqur til orqa undoshlari soni teng emas

C) berilgan gapdagi so'zlarning 9 tasi so'z urg'usiga ega

D) og'iz bo'shlig'ining ma'lum bir joyida to'ssiqqa uchraydigan tovushlari soni 37 ta

2. "Yozuv" so'zidagi harflar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi harflar tartib raqami bo'yicha kodlashtirilsa, qanday ketma-ketlik hosil bo'ladi?

A) 23, 15, 24, 20, 21 B) 22, 14, 23, 19, 20

C) 23, 14, 24, 20, 21 D) 22, 15, 23, 19, 20

3. Oxirgi bo'g'ini "i" ga moyil aytilsa ham, "o" yoziladigan so'z qatnashmagan gapni aniqlang.

A) Tormoz bo'shshib qolibdi.

B) Qiz xonaga termos ko'tarib kirdi.

C) Direktor bu gapdan ranjidi.

D) Yo'lchi undan zamon haqida so'radi.

4. Qaysi so'zga "i" qo'shimchasini qo'shganda tovush o'zgarishi ro'y bermaydi?

A) tovuq B) dovruc

C) huquq D) quduq

5. Quyidagi so'zlarning nechtasidagi nuqtalar o'rniga ham "o", ham "u" harflaridan biri qo'yilsa, bir o'rinda ot, ikkinchisida fe'l ma'nolarini anglatadi?

1) t...r; 2) s...r; 3) t...r; 4) ...rin; 5) k...rk; 6) b...r;

7) t...p.

A) ikkitasi B) uchtasi

C) to'rttasi D) beshtasi

6. Undagi "e" harfi "i" ga monand aytilsa-da, lekin "e" yozilgan so'z qatnashgan gapni aniqlang.

A) Akam tashrif buyurganlarni

kecha o'zi kutib oldi.

B) Zangori ekranda tarixiy filmning namoyishi bo'ldi.

C) Tabiat o'z ne'matlarini

bizdan ayamaydi.

D) Muxbirimiz telefon orqali xabar berdi.

7. Quyidagi gaplarning qaysi birida undagi unli tovushlaridan birini qolgan beshta unli tovushlarga o'zgartirganda ham yangi leksik ma'no anglatadigan bir bo'g'inli ikkita so'z ishtirok etgan?

A) Uning ko'zlari ko'r, qulog'i kar, idroki bo'sh, irodasi kuchsiz.

B) Siz bilan biz ushbu ulug' ishga bel bog'ladik.

C) Bir muruvvatli, saxiy odamning juda ko'p doni bor edi.

D) Ular bir nechta adabiy tur haqida suhbatlashishdi.

8. Qaysi qatorda undagi yonma-yon kelgan ikki xil unlini yonma-yon kelgan bir xil ikki unliga almashtirganda yangi leksik ma'no hosil bo'ladigan so'z berilgan?

A) doim B) joiz

C) doir D) shoir

9. Bitta jarangli tovushni jarangsiz juftiga almashtirganda yangi so'z hosil bo'ladigan so'zlarni aniqlang.

1) adib; 2) qars; 3) bod; 4) borliq; 5) nufuz; 6) burch;

7) ganj.

A) uchta B) to'rtta

C) beshta D) oltita

10. Rasmdagi musiqa asbobi nomi haqida aytilgan hukmlardan qaysi biri to'g'ri?



A) bir havo zarbi bilan aytiladigan uchta tovush birikmasidan iborat

B) tovush tarkibi til oldi, til o'rta va chuqur til orqa undoshlaridan iborat

C) so'zda bitta jarangsiz, uchta jarangli undosh tovush qatnashgan

D) so'zdagi jarangli undoshlarning bari o'z jarangsiz juftiga ega

11. Bitta ochiq va bitta yopiq bo'g'indan iborat so'zlarni aniqlang.

1) tonggi; 2) shudring; 3) ko'ngil; 4) singan; 5) dengiz; 6) kongress; 7) singil.

A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 6, 7

C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 3, 5, 7

12. Quyidagi qaysi gapda tutuq belgisi noto'g'ri qo'llangan?

A) Alisher Navoiy forsiy as'horda Foniy taxallusini qo'llagan.

B) Bu maktabda Is'hoqxon Ibratning izdoshlari voyaga yetmoqda.

C) Ahmad Yassaviy Yusuf Hamadoniyning as'hobi edi.

D) Amir Temur Usmon mus'hafini Samarqandga olib kelgan.

13. Berilgan qaysi so'zdagi qo'sh undoshning birinчисini uning jaranglisi bilan almashtirib yangi so'z hosil qilish mumkin?

A) asossiz B) essiz

C) issiz D) hissiz

14. Quyidagi qaysi gapda chuqur til orqa undoshi o'rniga bo'g'iz undoshi yozilgan so'z qatnashgan?

A) Mevasini ko'tarolmagan shoh qarsillab sindi.

B) Bir kuni kechasi bir hiyla o'ylab chiqdim.

C) O'zbekiston – hur Vatan, Baxtimiz ayvonidir.

D) Shoikrom birovi kirib ukasidan hol so'ragan edi.

15. Quyidagi nechta so'zda talaffuzi "sajda" so'zidagi uchinchi tovush bilan bir xil bo'lgan tovush qatnashgan?

1) mavj; 2) janr; 3) avj; 4) vijdon; 5) xorij; 6) jurnal; 7) o'jar.

A) ikkita B) uchta

C) to'rtta D) beshta

UYGA VAZIFA. Keyingi sonda 5-sinf "Ona tili" darsligining 96–119-betlaridagi mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularni qunt bilan o'rganing.

Alisher EGAMBERDIYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

MATEMATIKA

(Natural, butun, ratsional, irratsional, haqiqiy sonlar.

Natural sonlar ustida amallar [2-qism])

16. Hisoblang.

$$\left(1 - \frac{1}{18}\right) \left(1 - \frac{2}{18}\right) \left(1 - \frac{3}{18}\right) \dots \left(1 - \frac{36}{18}\right)$$

A) -2 B) 2 C) $16\frac{1}{18}$ D) 0

17. Ikki musbat son ko'paytmasining kvadratlar ayirmasiga nisbati $\frac{2}{3}$ ga teng. Shu sonlar yig'indisini toping.

A) 5 B) 6

C) 9 D) 10

18. Hisoblang: $\frac{2}{3} + \frac{3}{4}$

A) $\frac{17}{6}$ B) $\frac{13}{6}$ C) $\frac{6}{5}$ D) $\frac{3}{4}$

19. $24! + 25!$ soni nechta nol bilan tugaydi?

A) 4 B) 5 C) 6 D) 7

20. a va b raqamlar va A natural son uchun $a5b = A$ bo'lsa, $a7b$ ni A orqali ifodalang.

A) $A + 100$ B) $A + 20$ C) $A + 200$ D) $A + 10$

21. $3 \cdot 125^{35} \cdot 8^{34}$ son necha xonali son?

A) 104 B) 105 C) 106 D) 35

22. 1, 6, 7 va 9 raqamlaridan ularni takrorlamasdan mumkin bo'lgan barcha 4 xonali sonlar tuzilgan. Bu sonlardan nechta 4 ga qoldiqsiz bo'linadi?

A) 4 B) 2 C) 6 D) 8

23. -41 ni 7 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

A) -6 B) 6 C) 1 D) -1

24. 6 ga bo'lganda 5, 7 ga bo'lganda 6, 8 ga bo'lganda 7 qoldiq chiqadigan eng kichik natural sonni toping.

A) 168 B) 335 C) 217 D) 167

25. Uch xonali sonning raqamlari bittadan kamayib boradi. Shu sondan raqamlari unga teskari tartibda yozilgan sonni ayirish natijasida hosil bo'lgan son nechaga bo'linadi?

A) 2; 9; 11 B) 3; 5; 8 C) 6; 8; 15 D) 3; 8; 11

26. x raqamining qanday eng kichik qiymatida $(303 + 4x^3)$ soni 4 ga qoldiqsiz bo'linadi?

A) 5 B) 4 C) 6 D) 1

27. Yig'indini hisoblang:

$4+3,9+2,09+1,009+0,0009+0,00009 + \dots$

A) 10,9 B) 11 C) 9 D) 9,9

28. 96 va 120 sonlarining nechta umumiy bo'luvchisi bor?

A) 20 B) 15 C) 8 D) 6

29. 48^{48} ning natural bo'luvchilari soni A bo'lsa, A ning natural bo'luvchilari nechta?

A) 6 B) 7 C) 8 D) 9

30. Tub sonlar ichida 7 ga bo'linadiganlari nechta?

A) 0 B) 1 C) 7 D) ∞

UYGA VAZIFA. Keyingi sonda "Butun sonlar va ular ustida amallar" mavzulari bo'yicha test varianti beriladi, bunda testlar 5-, 6- va 7-sinf materiallari asosida tuziladi. Shu mavzularni chuqurroq o'rganishga harakat qiling.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI (6-sinf: 31–36-§§ asosida)

31. Qaysi javobda tarixiy shaxslar o'z farzandlari bilan mos ravishda berilgan?

1) Salavk – Antiox;

2) Diodot – Demetriy;

3) Xoriyen – Ravshanak;

4) To'maris – Spitaman;

5) Filipp II – Aleksandr.

A) 1, 2, 3, 5 B) 2, 3, 4

C) 1, 5 D) 1, 3, 4, 5

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 2-varianti

32. Quyidagi qaysi manzilgohlardan ibodatxona qoldiqlari topilgan?

- 1) Sopollitepa;
 - 2) Teshiktosh;
 - 3) Jarqo'ton;
 - 4) Qal'aliqir;
 - 5) Jonbosqal'a;
 - 6) Qo'yqirilganqal'a.
- A) 1, 4 B) 2, 5
C) 5, 6 D) 3, 6

33. Makedoniyalik Aleksandr bilan zamondosh bo'lmagan tarixiy shaxs qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Aristotel B) Xoriyen
C) Salavk D) Doro I

34. O'rta Osiyo hududida dastlabki tanga ular tarqalgan davrni aniqlang.

- A) mil. avv. V-IV asrlar
B) milodiy asr boshlari
C) mil. avv. I asr
D) milodiy VI-VII asrlar

35. Behistun bitiklarida yozilishicha, Doro I saklar ustiga yurish qilganda dastlab qaysi saklar bilan to'qnash keladi?

- A) saka-tigraxauda
B) saka-tiay-taradarayya
C) saka-xaumovarka
D) saka-parasug'dam

36. Ahamoniylarga taalluqli quyidagi ma'lumotlardan to'g'rilarini aniqlang.

- 1) O'rta Osiyoda ahamoniylar hukmronligi davrida satrapga cheklanmagan hokimiyat berilgan;
 - 2) satraplarning ko'pchiligi mahalliy hukmdorlar edi;
 - 3) mil. avv. IV asrda Xorazm ahamoniylar zulmidan ozod bo'lgan;
 - 4) O'rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari to'rt satraplikka bo'lingan;
 - 5) Zariasp satrapi Bess Aleksandr qo'shinlariga qarshi mardonavor jang qilib, halok bo'lgan.
- A) 1, 2, 3, 5B) 1, 3 C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 4, 5

37. "Buyuk meridional yo'l" (Buyuk Ipak yo'li) Sariq dengizdan boshlanib qaysi hududlar orqali O'rta yer dengizi sohillariga cha borgan?

- A) Sharqiy Turkiston, Eron, Misr, Mesopotamiya
B) Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya
C) Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Misr, Eron
D) O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya, Misr

38. Quyidagi qaysi juftlikda bir-biri bilan to'qnash kelgan (jang qilgan) tarixiy shaxslarning nomlari noto'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Kir II - To'maris
B) Doro I - Frada
C) Demetriy - Miltiad
D) Spitaman - Aleksandr

39. Quyidagi jadvalning qaysi qatorlaridagi ma'lumotlar bir-biriga mos ravishda berilgan?

№	Hukmdor	Ma'lumot
1	Kir II	O'rta Osiyoga yurish qilganida halok bo'lgan
2	Yevtidem	Parfiyada hukmronlik qilgan davrda tarixda sezilarli iz qoldirmagan
3	Aleksandr	Mil. avv. IV asr ikkinchi yarmida Sharqqa yurish boshlagan
4	Doro I	Hukmronligining uchinchi yili Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi yirik xalq qo'zg'oloni boshlagan
5	Mitridat I	Yunon-Baqtriyada hokimiyatni o'z qo'lga olgach, Parfiyaga harbiy tazyiqlarni kuchaytirgan
6	Antiox	Salavkiylar davlatini 20 yilga yaqin boshqargan
7	Vima Kadfiz	Hukmronligi davrida hukmdor nomi ko'rsatilgan tanga zarb qildirgan

- A) 1, 3, 6, 7 B) 2, 3, 4, 5
C) 1, 4, 5, 6 D) 2, 4, 6, 7

40. Quyidagi qaysi tarixiy shaxs o'z hukmronligi davrida O'rta Osiyoga yurish qilmagan?

- A) Aleksandr B) Doro I
C) Kir II D) Filipp II

41. Quyidagi Qang' davlati bilan bog'liq ma'lumotlarning qaysilarida tarixiy xatolikka yo'l qo'yilgan?

- 1) Qang' davlati Davan va Kushon davlati bilan bir davrda parchalanib ketgan;
- 2) Qang' davlati Davan va Kushon davlati bilan bir davrda vujudga kelgan;
- 3) Qang' davlati hududidan Buyuk Ipak yo'lining janubiy tarmog'i o'tganligi davlat iqtisodining gullab-yashnashiga imkon yaratishi bilan bir qatorda ko'chmanchi qabilalar bilan urushlarning kelib chiqishiga ham sabab bo'lgan;

- 4) Qang' va ko'chmanchilar o'rtasidagi urushlarda ko'pincha Qang' davlati yengilar edi;
 - 5) mil. avv. II-I asrlarda yuksak taraqqiy etgan davlatga aylangan;
 - 6) Qang' davlatiga saklar asos solishgan.
- A) 1, 3, 5, 6B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 4, 5, 6D) 2, 3, 4, 5

42. "Buyuk meridional yo'l" (Buyuk Ipak yo'li) vujudga kelgan davrda ...

- 1) Davan davlati vujudga kelgan;
 - 2) Qang' davlati qudratli davlat birlashmasiga aylangan;
 - 3) tarixchi Arrian "Aleksandr anabasisi" asarini yozgan;
 - 4) "Shiroq jasorati" haqida ma'lumot qoldirgan Poliyen yashab o'tgan;
 - 5) Yunon-Baqtriyada davlati yuechjilar tomonidan bosib olingan.
- A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 4

- C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 3

43. Quyidagilar orasidan O'rta Osiyo tarixiga oid ilk yozma manbani aniqlang.

- A) Behistun qoyalari B) "Avesto" kitobi
C) Gerodotning "Tarix" asari
D) "Bibliya" kitobi

44. Buyuk Ipak yo'li orqali O'rta Osiyoning quyidagi shaharlaridan Xitoyga olib borilgan mahsulotlar qaysi javobda mos ravishda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Baqtriyaga; b) Farg'ona; c) Badaxshon; d) So'g'diyona.
1) zeb-ziynat buyumlari; 2) tuyalar; 3) la'l; 4) guruch; 5) zotdor otlar.
A) a-2, b-4, c-3, d-1 B) a-1, b-5, c-2, d-4
C) a-2, b-5, c-3, d-1 D) a-2, b-5, c-1, d-4

45. Fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan tarixiy yodgorlik ...

- A) pishiq g'ishtdan qurilgan mustahkam istehkom devorlari bilan o'ralgan.
B) ibodatxonalarida o'sha davr devoriy tasvirlari va haykaltaroshlikning yuksak san'at namunalari o'rganilgan.
C) do'mbirachi hamda ud chalayotgan musiqachilar tasviri kabi topilmalari bilan mashhur.
D) yunon alifbosidagi kushon bitiklari topilgan yagona yodgorlik sifatida qadrlanadi.

UYGA VAZIFA. Gazetaning keyingi sonida 6-sinf "Tarix. Qadimgi dunyo" darsligi bo'yicha bir darslik doirasidagi test topshiriqlari beriladi. Mazkur kitobning kirish, 1-5-§§, 19-20-§§, 31-36-§§ va xulosa qismlarini qaytadan takrorlab chiqing.

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti
talabasi, repetitor

2-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
B	C	D	C	C	D	C	D	B	C	D	A	C	A	B
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
D	B	A	A	B	B	C	C	D	A	D	B	C	A	B
O'ZBEKISTON TARIXI														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
C	D	D	A	A	B	B	C	A	D	D	C	B	C	B

Bo'lajak o'qituvchi – bo'lajak tarbiyachi hamdir!

Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Farzandlarimizning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yog'ba chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo'lib qoladi... Shu maqsadda biz "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" doirasida umumta'lim maktablarida birinchi marta "Tarbiya" fanini joriy etmoqdamiz", deb ta'kidlashi xalq ta'limi xodimlari, maktab o'qituvchilari oldiga ulkan vazifalarni qo'ydi.

Xo'sh, aslida tarbiya nima? Bo'lajak tarbiyachi qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerak? Shu xususida fikrlarimizni bayon qilsak.

Tarbiya insonning aql-idroki, bilimi, irodasi va e'tiqodini, yetuklik sifatlarini rivojlantirishda muhimdir. U so'nmas mash'ala sifatida farog'at saltanatiga hech bir zahmsiz yetkazadi kishini.

Tarbiya har qanday sharoitda ham nurlil cho'qqilarga yetishish yo'lini ko'rsatishi bilan birga kishi zehni, fikrini qilich kabi o'tkir qiladi va har bir shaxsga ma'naviy ozuqa berib, madaniyat, ma'rifat dunyosiga olib kiradi. Yomon odamlardan, yomon ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va odobli bo'lishga xizmat qiladi. Natijada kishilar har yerda aziz va hurmatli bo'ladilar. Kishi hayotini to'g'ri yo'lga soladigan vosita bu – tarbiyadir.

Shuning uchun ham xalq orasida tarbiya orqali oliy fazilatlariga, ulug'likka va orzu-istaklarga erishgan buyuk kishilar qadrlanadi. Tarbiya yaxshi-yomonni tanish, halol-haromning farqiga borish, do'stlik va qarindosh-urug'ning fazilatlarini anglash, qonun-qoidalarini tushunish, haq-huquqlarini bilish kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarni ham kamol toptiradi.

Bizda bola tarbiyani oilada otanonadan, maktabda ustoz-murabbiydan oladi. Shu o'rinda tarbiya borasida o'qituvchilarning o'rnini alohida ta'kidlash zarur. O'qituvchi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda istiqbolli rejalarni ishlab chiqishi va unda har bir tadbirning mazmuni, muddatlari, mas'ul ijrochilar va mo'ljalalanayotgan tadbirlarning samaradorlik darajasiga ahamiyat berishi muhim o'rin tutadi. Shu munosabat bilan bo'lajak o'qituvchi o'quv-tarbiya jarayonlarini tahlil qilish, turli uslublarni qo'llash, ongli ravishda faol fikr yuritish, bilimni safarbar qilish, o'zi bajaradigan barcha ish jarayonlarini mustaqil ravishda amalga oshirish kabi tajriba va pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur.

Shiddat bilan o'zgarayotgan yangi O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviyat, fuqaroviy madaniyat kabilarni

shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda. Chunki tarbiya dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qilish, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantirish, oila – jamiyat o'rtasidagi munosabatlar uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, «om-maviy madaniyat»ning turli ko'rinishlaridan saqlash imkoniyatini yaratishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu jihatdan ham bo'lajak o'qituvchilar tarbiya ishlarini tashkil etish va boshqarishda ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash, o'rganish va ularni om-malashtirish, ilmiy-tadqiqot izlanishlarini amalga oshirish, o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o'quvchilar tarbiyasida oilaning maktab bilan o'zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo'lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo'llab-quvvatlash, bola huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Shuningdek, yangi avlod tarbiyasiga oid o'quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, ularning o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishi natijasida fanlar mazmun-mohiyatini to'liq anglashi va hayotga tatbiq qilishiga ham erishish darkor. Bularning barchasi tarbiya samaradorligini oshiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning asosiy vazifalari ta'lim orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodkorlikni oshirish va shu asosida tarbiya mazmunini takomillashtirishdan iboratdir.

Bo'lajak o'qituvchi o'zining faoliyatida malakali va tajribali, chuqur bilimga ega bo'lishi, davlat va chet tillarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va o'qitishning innovatsion uslublarini bilishi, klaster metodi asosida boshqa tashkilotlar, yirik kompaniya va birlashmalar bilan aloqada bo'lishi asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish zarur. Shuningdek, u milliy va jahon adabiyoti, musiqa, kino, haykalta-

roshlik, amaliy san'at va boshqa ijodiy yo'nalishlardagi bilimlarga ega bo'lishi ham foydadan xoli bo'lmaydi. Bundan tashqari, u ta'lim jarayonida axborot yangiliklarini joriy etish, zamonaviy talablarni hisobga olgan holda va tasdiqlangan me'yorlardan kelib chiqib, yangi o'quv-laboratoriya, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ham faol bo'lmog'i darkor.

Shu bilan birga, o'quvchilar o'rtasida ijodiy tanlovlar, test va boshqa sinovlar o'tkazib, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini, iste'dodini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar olib borishi ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi.

Albatta, bunda o'qituvchining malakali bo'lishi, o'quvchi-yoshlarga hozirgi kunda dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ularning ongi va qalbiga yetkazishi muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonda o'qituvchi O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlarida hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan o'quvchilarni tanishtirishi, ularda ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirishi, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi va o'zaro munosabatlar orqali bir-biriga ishonch, o'ziga va o'zgalarga halol, haqiqat bilan qarashi, o'z oldidagi ma'suliyatini to'laqonli his eta olishga tayyorlashi kerak.

O'qituvchi tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsini o'rganishi, ularning ishonchini qozonishi, o'zaro tushunishga erishishda to'g'ri yondashuvni qo'llashi, o'z munosabatlarini ifodalashi, his-tuyg'ularini sezishi va ularga ko'mak berishda zamonaviy va oqilona tizim yaratishi darkor. Bu orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya oluvchilarda ijodiy fikrlash, hayotda faol ishtirok etish va tashabbus ko'rsatishga oid ijtimoiy-psixologik munosabatni qaror toptiradi.

Shu jihatdan ham o'qituvchi jamiyat, davlat va oila oldida o'z ma'suliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri angliyadigan vatanparvar va xalqparvar shaxsni shakllantirishga e'tibor qaratishi birlamchi masalalardan.

Darvoqe, pedagogning o'quvchi faoliyatini ziyraklik va diqqat bilan kuzatishi, ularga yordam berishi, muammolarni muhokama qilishi, to'g'ri qarorlar qabul qilishi jarayonida suhbatlar, so'rovnoma, testlar o'tkazishi ularning fikri, dunyoqarashini o'rganish, xato va kamchiliklarini aniqlash imkoniyatini beradi. Ushbu jarayonda ta'lim-tarbiya natijalarini o'rganish, xulosalar tayyorlashda o'qituvchining nazariy, uslubiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati va shaxsiy sifatlari muhim o'rin tutadi.

Bo'lajak o'qituvchilar tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'z vazifasini puxta va halol bajarishi o'quvchilarning ma'suliyati va ma'naviyatini yuksaltirishda o'z samarasini ko'rsatadi.

O'qituvchining kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega bo'lishi, tarbiya jarayonini boshqarishda har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila olishi, belgilangan maqsadlarga erishishda aniq vazifalarni belgilab beradi. O'qituvchi nafaqat ta'lim-tarbiya ishlarini olib boshqarishda, balki jamiyatning taraqqiy etishida katta vazifani bajaradi. Shuning uchun har qanday o'qituvchi, avvalo, o'z o'quvchilarining hayotiy darajalarini puxta bilishi va bu sohada iloji boricha katta tajriba hosil qilishi muhim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quvchilar ko'p jihatdan o'qituvchilariga taqlid qiladilar. Ushbu jarayonda o'qituvchi to'g'ri yo'l tutsa, o'quvchilar ham to'g'ri yo'l tutadi.

Tarbiya jarayonini boshqarishning eng samarali usullaridan biri o'qituvchi o'z nuqtayi nazarini ko'rgazmali shaklda, rang-barang, kutilmagan, hayotdan olingan voqealar va misollar bilan taqdim etishidir.

Har bir o'qituvchining o'ziga xos ta'biya usullari bor. O'qituvchining xulq-atvori, orzulari, maqsad va yutuqlari o'quvchining o'ziga xos bo'lib yetishishiga ta'sir qiladi. O'quvchidagi kamchilik va xatolarni aniqlashda dastlab o'qituvchi uning muomalasini o'rganishi sezilarli natija beradi. Bola o'zida aynan ota-onasining fazilatlarini mujassamlashtirmasa-da, tarbiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga mehr berib, ularni qo'llab-quvvatlash, ko'maklashish, sevish va sevilish kabi go'zal tuyg'ularni rivojlantiradi. Tarbiya esa o'quvchilarga bilimlar, qoidalar, qadriyatlar, shaxsning ijtimoiylashuvi uchun kerak bo'lgan barcha an'analarni beradi.

Tarbiya jarayonini boshqarishda belgilangan tartibga amal qilish ularda bilimlarni kengaytirish, darrov mulqotga kirishish, adashgan insonni kechirish, unga ko'maklashish, kechirimli bo'lish, o'ziga va atrofdagilarga ishonish, mehribon bo'lish, yaxshilik qilish, ko'mak berish tuyg'ularini rivojlantiradi.

O'quvchining to'g'ri va noto'g'ri, yaxshi va yomonni ajratishini o'qituvchi uning o'ziga qo'yib beradi. Unga nima qilish yoki nimani qilish mumkin emasligi to'g'risida berilgan yo'nalishlar o'quvchi haq-huquqlarini rivojlantirishga qaramay, belgilangan tartibga bo'syunishi qat'iy talab etiladi. Mazkur boshqaruvni tanlagan o'qituvchi "Mening o'quvchim ideal fazilatlar sohibi bo'lishi lozim", deb hisoblaydi va hech qachon unga tazyiq o'tkazmaydi. O'qituvchi o'quvchining maqsadi va harakatlari, hayot sinovlarida ko'makchi bo'lib, uni baxtli qilishni o'ylaydi. O'quvchilar o'rtasida yaxshi munosabat ma'naviy yaqinlik, qadriyatli yo'nalishlarning birligi, vaziyat va manfaatlarning umumiyligida paydo bo'ladi.

Bugungi kunda tarbiya ishlarini boshqarish mamlakat va jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad ham shu, aslida.

Ulfat MAHKAMOV,
TVChDPI professori,
pedagogika fanlari doktori,
Fotima JUMANOVA,
TVChDPI dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

kafedralari bo'yicha quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi

I. "Dastgohli rangtasvir" kafedrası: – Kafedra mudiri; – O'qituvchi.	VII. "Muzeyshunoslik" kafedrası: – O'qituvchi.	Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim: – Institut rektori nomiga ariza; – Xodimlar shaxsiy varaqasi; – Oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarining nusxasi; – Mehnat daftarchasi nusxasi; – Ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati; – Ijodiy ishlar ro'yxati, ijodiy ishlar fotoalbomi; – Kataloglar. HUJJATLAR E'LON CHIQQAN KUNDAN BOSHLAB BIR OY MUDDAT ICHIDA INSTITUT KENGASHI KOTIBI TOMONIDAN QABUL QILINADI. Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko'chasi, 123-uy. Murojaat uchun telefon raqami: (71) 255-18-33, 255-98-39
II. "Mahobatli rangtasvir" kafedrası: – O'qituvchi.	VIII. "Dizayn" kafedrası: – Dotsent; – Katta o'qituvchi. – O'qituvchi.	
III. "Badiiy kulol va me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash" kafedrası: – Katta o'qituvchi; – O'qituvchi.	IX. "Libos dizayni" kafedrası: – O'qituvchi.	
IV. "Haykaltaroshlik" kafedrası: – O'qituvchi.	X. "Amaliy grafika" kafedrası: – Dotsent. – O'qituvchi.	
V. "Chizmatasvir" kafedrası: – O'qituvchi.	XI. "Tillar va adabiyot" kafedrası: – Kafedra mudiri; – Katta o'qituvchi.	
VI. "Tasviriy san'at tarixi va nazariyasi" kafedrası: – Dotsent; – O'qituvchi.	XII. "Ijtimoiy fanlar, pedagogika va kasbiy ta'lim" kafedrası: – Katta o'qituvchi.	

PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, KASB-HUNAR TA'LIMI BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

TAYANCH DOKTORANTURAGA QUYIDAGI IXTISOSLIKLAR BO'YICHA QABUL E'LON QILADI:

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosliklari bo'yicha (2 ta o'rin) tayanch doktoranturaga o'qishga kirishda talabgorlar quyidagi hujjatlarni:

- Ariza;
- Qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- Oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;
- Nashr etilgan ilmiy ishlari ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

HUJJATLAR 15-OKTABRGACHA QABUL QILINADI.

Tayanch doktoranturaga kirayotgan shaxslar mutaxassislik va chet tili (ta'limning oldingi darajalarida o'rganilgan xorijiy til bo'yicha) bo'yicha imtihonlarni topshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tayanch doktoranturaga kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi.

KIRISH IMTIHONLARI 1-25-NOYABR KUNLARI BO'LIB O'TADI.

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi va 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

ixtisosliklari bo'yicha tayanch doktorantura va doktoranturaga mustaqil izlanuvchilikka kiruvchi talabgorlar quyidagi hujjatlarni topshiradilar:

- Ariza;
- Qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- Mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtirish uchun magistrlik yoki oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturi bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;
- Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- Ilmiy ishlar ro'yxati va ularning nusxasi;
- Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtirish uchun fan nomzodi yoki falsafa (PhD) doktori diplomi yoki xorijda olingan unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja diplomi nusxasi;
- Ish joyidan tavsifnoma.

MUSTAQIL IZLANUVCHILIKKA KIRUVCHI TALABGORLAR IXTISOSLIK BO'YICHA SUHBAT NATIJALARI VA INSTITUT QABUL KOMISSIYASINING TEGISHLI XULOSASI ASOSIDA QABUL QILINADI.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziya ko'chasi, 76-uy.

Murojaat uchun: (71) 246-90-37, 227-12-88;
e-mail: novasiyalar@edu.uz, devonxona@iirpo.uz

Poytaxtga, bir oylik malaka oshirish kursiga borib, qishloqqa qaytgan direktor Abdullayev uyining ostonasidan hatlamay turib xotini vahima qildi: "Maktabingizga nozik mehmon kelarmish, bir haftadan beri shanbalik qilishyapti, tinchlikmikan ishqlib...".

"Demak, maktabni oqlab-ko'klab qo'yishgan bo'lsa, tayyorgarlik joyida, - o'yladi direktor, ammo negadir ko'ngli xira tortdi: - baribir, erta sahar chiqib bir chetdan boshlab o'z ko'zim bilan ko'raman, har balo bo'lishi mumkin".

Hammaga shubhalanib qaraydigan Abdullayevning tinchi buzilib, tun bo'yi mijja qoqmay chiqdi.

Saharda nonushtaga ham qaramay ishga chopdi.

Maktabga eldan burun kelib, keyin ketadigan, miqti jussali, chaqon, bir umr oq ko'yilgan jigarrang bo'yinbog'ini yechmagan ilmiy bo'lim mudiri Xalilich darvozaning oldida peshonasini tirishtirib turgan ekan.

- Xalilich, kim kelyapti? Nega? - hol-ahvol so'rab o'tirmay to'g'ri maqsadga ko'chdi direktor.

- Hozircha noma'lum. Yuqoridanmish, aynan o'sha maktabni ko'raman, deganmish. Qo'ldan kelganicha taraddud ko'rib qo'ydik. Maktab faol ekan deb ketishi uchun uslub-xona bilan kelishib, mehnat o'qituvchilarining tuman seminarini ham bugunga belgiladik.

- Mayli, uni qo'ya turing. Aytinch, o'sha nozik mehmonni qanday kutib olasiz? Nimalarni ko'rmoqchi? Yo birontasi shikoyat yozdimikan?

Direktorning ketma-ket savollaridan boshi gangib qolgan Xalilich bo'yinbog'ini sal bo'shatib, xayoliga kelganini dedi:

- O'zingiz bosh bo'lib, saf tortib, "Xush kelibsiz!" deymiz-da. Shuncha kelganing...

Bir oy bolalar shovqin-suronidan uzoqlarda yurgan Abdullayev yuragini betlamay maktabga nazar tashladi. Hamma yoq ozoda - supurilgan-sidirilgan, oynalar artilgan, pardalar tortilgan. Ammo nimadir yetishmayapti. Ha, shior yo'q-ku! Zudlik bilan rasm o'qituvchisini chaqirtirgach, Xalilichga ko'zlarini qisib sinchiklab tikildi:

- Albatta, barchamiz kutib olamiz, ammo shior-chi, shior qani?

- Qanday shior? - hayron bo'lib so'radi Xalilich.

- Masalan, tadbiringni umumiy ruhini ko'taradigan biron so'z yozib qo'ysak bo'lmaydimi? "Alangali salom"mi? Shunga o'xshash. Tadbir mavzusi nima o'zi?

- Mehnat fani o'qituvchilari seminari... - Mavzusi bormi?

- Hozir o'zidan so'raymiz, - dedi Xalilich, ammo bu masala kelishilmagani sabab gapini chalgi'tidi. - Yaxshisi xo'jalik mudirini chaqiraylik. Unda tayyor shiorlar ko'p. Bo'lmasa, yozib tashlaymiz. Mehmon soat o'nda keladi. Ulguramiz.

Yigirma yildan beri tadbir o'tkazaverib pishib ketgan xo'jalik ishlari bo'yicha mudir direktorning tashvishiga tushganiga hayron bo'ldi. O'zi bilib biron shior ilib qo'yardi-yu, ammo o'zboshimcha deyishadi - sabr qildi. Har holda mehmon nozik...

- Xalilich, sizga qanaqa shior kerak? "Xush kelibsiz"mi, "Muborak bo'lsin"mi? - hozirjav bo'jalik mudiri chopib borib temir sandiq'ini ochib, bir quchoq shiorlar taxlamini keltirib yerga tashladi-da, uch qismga ajratib qo'ydi. - Mana bunisi bayramlar bo'yicha, bunisi seminarlariga, bunisi saylovga o'xshash har xil tadbirlarboq. Faqat seminardan keyin shiorni shaxsan o'zingiz topshirasiz, tozalab, taxlab, saqlab qo'yaman. O'tgan kuni mahallaga bittasini so'rab olishgandi, tadbirdan so'ng kimdir tashlab yuboribdi.

- Siz nima deysiz? - direktor savol alo-mati bilan mehnat o'qituvchisiga qaradi.

Tabiatan kampak, kamsuqum, dast-go'dan bosh ko'tarmaydigan mehnat o'qituvchisi kutilmagan savolga loyiq javob topolmay kalovlandi, buni ko'rgan Xalilich tashabbusni qo'lga oldi:

- "Anjuman ishtirokchilariga alangali salom!" deb yozilgani bormi?

- Bor. Oq matoga ko'k bo'yoq bilan yozilgani ham, qizilga oq bilan yozilgani ham bor. Qaysi birini beray?

- Oqqa yashilda yozilgani yaxshi. Qizilini qo'ya turing.

Yoshlar yetakchisi bilan mehnat o'qituvchisi ikkovlashib yangi yozilgan turgan shiorning buklangan joylarini qo'lda tekislab, katta darvoza tepasiga ilishganda maktabga kirish yo'li yorishib ketganday bo'ldi.

- Shior kishi ruhini ko'taradi, - deb qo'ydi Abdullayev dimog'i chog' bo'lib,

HUMOYUN

Taraddud

Hikoya

shu orada tadbir mavzusini so'rashni unuti. Ilmiy bo'lim mudiri mehnat o'qituvchisiga ma'noli qarab qo'ydi: go'yo ikkisi mavzu masalasini rahbarga eslatmaslikka kelishib olishdi.

- To'g'ri qilasiz, - dedi direktor xo'jalik mudiriga. - Har oyda o'rta tadbir o'tadi, hammasiga yangi shior yozaversak, topganimiz mato-moybo'yoqqa ketadi-ku! Hash-pash deguncha saylov keladi.

Direktor hali maktab darvozasidan kir-may turib kamchilik topgani tufayli turgan yeridan boshlab qadamma-qadamma hammasini ko'zdan kechirishga ahd qildi. Ilmiy bo'lim va xo'jalik ishlari mudirlari, mehnat o'qituvchisi hamda yoshlar yetakchisi ortidan ergashdi.

Kirish yo'lining ikki cheti hamda umumiy yig'in o'tkaziladigan katta maydon at-rofiga kecha oqshom o'tqizilgan turfa gul-lar yashnab ko'ringanidan Abdullayevning bahridilini ochildi. Yaqin orada maktabni bunalchik chiroyli holida tasavvur ham qilmagandi. "Mana, bo'lar ekan-ku! Nega hamisha shunday turmaydi?" - degan fikr xayolidan o'tar ekan so'radi:

- Gullaringiz tushdan keyin so'lib qol-maydimi? Qimmatmasmi? Davom etamiz.

- Yo'q, bir hafta turib beradi. Tagiga iydirib suv quydik, o'zining tuprog'i bilan ekilgan. Qimmat ekan, nima qilyalik endi, olamiz-da, - ming'irladi Xalilich.

- Juda yaxshi, keyin-chi, bir haftadan keyin qurib qoladimi? - beozor kesatdi di- rektor.

- Bahorda ekilganda, boshqacha bo'lardi. Qarovga bog'liq...

- Ekilganda emas - ekanimizda, Xalilich! Mayli, endi chalgi'imaylik. Davom etamiz.

Ular darvozadan o'tib, maktab hovlisi chetidagi devorning ko'chib tushgan joyiga kelganda to'xtab qolishdi. Oppoq devorda bolalar rangli bo'r bilan chizgan suratdan tashqari ko'ptok izlari qorayib ko'zga tashlandi.

- Xalilich, - dedi dili xira bo'lib direktor. - Bu nima degan gap? Devorga qarab to'p tepishsa, suvog'i ko'chib tushadi-ku!

- Kechagina oqlagandik, zumrashalarni qarang. Ertalab kelsam, yana shu ahvol. Xotirjam bo'ling, domla. Bu yerda atlas ko'ylak kiygan yuqori sinf qizlari qo'llarida gul bilan mehmonlarni kutib olishadi. Navbat-navbatdan borib gul berishadi, devorning dog' joylari ko'zdan panada qoladi. Hech kim sezmaydi.

Direktor Xalilichga "Davom eting. Qaysi tomonga yuramiz?" deganday savol nazari bilan qaradi. Xalilich tez-tez yurib, maktab binosining eshigi ostonasiga bordi-da, ortiga keskin qayrilib, Abdullayevga yuzma-yuz bo'lgach, ikki qo'lini oldinga cho'zib, dedi:

- Mana shu joyga kelganda boshlang'ich sinf o'quvchilarimiz mehmonlarni she'r aytib qarshilaydi. Keyin ichkariga yo'l olamiz.

- Demak, avval gul beriladi, so'ngra tabriklanadi. Bolalar she'rni yod bilishadi-mi?

- Bilishadi. Bu she'rilar barcha tadbirlarda aytilgan. Uyuqsidan uyg'otib so'rasangiz tutilmay sayrashadi. Bundan ko'nglim to'q. To'rtinchi sinf. Hammasining ko'zidan o't chaqnaydi. O't-olov!

- Davom etamiz!

Xalilich maktab eshigini ochganda direktorning dimog'iga achqimtir hid urildi. Bir oy maktabdan uzoqda, toza havoalarda yurgan

- Xo'p, domla, xotirjam bo'ling, - dedi Xalilich dadillashib. - Yakuniy yig'ilishimiz faollar zalida o'tadi. Kutubxonaga kirishga o'rin qoldirmadik, chunki birinchi qavatda - faollar zaliga kiraverishda yangi kitoblar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Kitob do'koni ham keladi, aytilgan, - Xalilich maktabning yon tomonidagi qarovsiz maydoncha ko'zga tashlanib turadigan katta darazaga boshi bilan ishora qildi. - Ko'rib turganingizday hovlidagi begona o't, ajriqlarni chopib, suv sepib, ikki-uchta stol-stul qo'ydik. Stolga har xil badiiy kitoblar, gazeta-jurnallar tashlanadi. Bu yerda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalari dars tugashini kutib, kitob varaqlab o'tirishadi. Zerikib qolmaslik uchun. Bu ham bir yangilik. Mahalla bilan kelishilgan, faol uy bekalari chiqishadi.

- Fikringizga qo'shilaman, - dedi mamnun bo'lib Abdullayev. - Demak, hovlining bu tarafi yopildi. Ma'kul. Ammo qishloqda hech kim bolasini maktabdan olib ketishga kelmaydi-ku? Mayli, agar mehmon shaharlik bo'lsa - sezmaydi. Davom eting!

- Davom etamiz, - ruhlanib ketdi Xalilich. - Yakuniy majlis boshlanishi arafasida musiqa maktabidan chaqirilgan bolalar konsert berishadi. Yarim soatlik dastur. Sport zal qullab qo'yiladi, o'zingizga ma'lum. Sport maydonchasida esa, sport maktabi o'smir-larining qo'l jangi bo'yicha ko'rgazmali chiqishi bo'ladi. Bir kunga iltimos qildim.

- Yaxshi, - dedi direktor xotirjam tortib. - Xalilich, tajribangiz bor. Yo'qligimni bildirmabsiz. Majlisdan keyin-chi? Davom etamiz.

- Bu yog'i nima desangiz shu.

- Ma'qul, - takrorladi Abdullayev. - Bu yog'ini menga qo'yib beravering.

Tadbirda astoydil taraddud ko'rilganiga ishonch hosil qilgan direktor aksariyat o'qituvchilar yig'ilmay turib, uyiga ketishga chog'landi. Tayyorgarlik ishlariga xalal bergisi kelmadi.

- Xalilich, men uyga borib nonushta qilgach, soat o'nalarga yaqin qaytaman, - dedi Abdullayev boshini qashib. - Siz o'ylab qo'yganingizday davom eting.

Abdullayev oradan ikki soat o'tmay maktabga qaytganda, mehmonlar yo'lga chiqishgani haqidagi xabar kelib-kelmay, ortidan o'zlarini ko'rindi. Viloyatdagi nazoratchi kuzatuvida kelgan yoshgina, ozg'in yigitning aftu angori direktorning ko'ziga issiq ko'rindi. Ammo Xalilich bir qaraganda tanidi.

- Domla, bu mehmon deganlari anavi Muqim polvonning o'g'li-ku! Maktabimizni butirgan. Ko'rinnay ketganiga o'n yilcha bo'luvdi. Yuqorida ishlarikan-da.

- Mehmon kimligini tuzukroq surish-tirmabsiz-da, - dedi asabiy direktor o'zini bosib Xalilichga.

- Assalomu alaykum, ustoz, - deb mehmonning o'zi quchoq ochib keldi Abdullayev tomonga. - Viloyatga yuborishgandi, yo'l-yo'lakay o'ta-onamni ko'rib ketay dedim. Qishlog'imiz nomini aytсам, bilishmadi, maktabni ayta qoldim. Qarang, bitirganimiz-ga ham yetti yil bo'libdi.

- Ma'qul, - dedi Abdullayev, - qani, ichkariga kiraylik.

- Rahmat, ustoz. Uydagilar kutishyapti, vaqtim ozroq, shoshib turibman, bizga ruxsat berasiz.

Mehmon maktabga kirmadi, ammo atrof-ga havas bilan qarab:

- Seminar bo'lyaptimi, xalal bermaylik, - deb qo'shib qo'ydi.

Abdullayev lol bo'lib qoldi, ammo sir boy bermay, mehmonni uyiga kuzatarikan, boshqarmadan kelgan vakilning yuziga qaragisi ham kelmadi.

- Xalilich, mehnat o'qituvchilariga amaliy seminar belgilab to'g'ri qilganisiz, - dedi mehmonni kuzatdigan direktor boshini qashib. - Ularni yaxshilab kutib olib, ko'tarinki ruh-da kuzating. Men uyga ketdim, ertaga chiqqa-man. Kecha uzoq yo'l yurib charchabman, shekilli.

Tumandagilar avvaliga maktab mehnat o'qituvchilari seminariga juda jiddiy tayyorgarlik ko'rganiga ajablangan bo'lsa-da, baribir, tajribali direktorga rahmat aytishdi.

Ammo tadbir qaysi mavzuda o'tgani mavhumligicha qolaverdi.

Og'riq

Attestatsiya ortidagi xayollar

Yoxud "O'qituvchi, sizga "3" baho yarashmaydi!"

Ona tili va adabiyot malaka sinovi uchun Jizzax politexnika instituti sport zalida test topshirdik. Sinov uchun 14:00 ga chaqirilgan edik, lekin jarayon 15:00 da boshlandi. 40 ta savol uchun 60 daqiqqa vaqt berildi. Tegishli ma'lumotlarni to'ldirib, test topshiriqlarini bajarishga kirishdik. Savollarni o'n besh daqiqqa ichida ishlab bo'ldim. Hayajon bosdi. Albatta bosadi-da, axir bu yerda nafaqat bilimim sinovdan o'tadi, balki o'qituvchilik sha'nimni ham himoya qilishim kerak.

Orada meni ikkilantirgan ikkita savol qoldi. Shu asnoda ishlagan savollarimni yana qayta ko'rib chiqdim. Bu orada oldin belgilagan savollarimdan bittasini xato bajarganimni boshqa savol orqali bilib qoldim va uni darhol tuzatdim. Yana o'sha ikkita savol "javobimni top" deb turibdi. Ikkalasi ham adabiyotdan edi. Adabiyotdagi hamma ma'lumotlarni eslab qolish mushkul. Qarasam, 15 daqiqqa vaqt qolibdi. Tavakkal qilib ikkalasini belgiladim va nazoratchini chaqirdim. Nazoratchi o'zi bilan vedomost olib keldi va natijamni ko'rsatdi. 95 ball, 38 ta javob to'g'ri. Imzo qo'yib tashqariga chiqdim. Maktablardan juda ko'p o'qituvchilar kelgan ekan. Ularning ko'pchiligi attestatsiyadan o'tolmadim, deyishayotgan edi. Chunki aksariyati 50 baldan past natija ko'rsatgan ekan. Ayrim o'qituvchilargina 60 yoki 80 ball to'plaganini eshitib qoldim. "Savollar juda qiyin ekan", deb bir-biri bilan gaplashayotgani qulog'imga chalindi. Bittasining savolini eshitdim: "Tomchilar tomchilar boshimga" misrasidagi shakldosh so'zlarning gapdagi vazifasini aniqlang".

Eshtiganlarimdan xafa bo'lib ketdim. O'qituvchi o'z fanidan 50 baldan kam ball to'plasa, u dars berayotgan o'quvchilarning holi nima kechadi?! Gunohi nima ekan bechora o'quvchilarning?! Boshimni har xil xayollar chulg'ab oldi va hozirgacha tark etmayapti. Bu ahvolda kelajagimiz nima bo'ladi? Farzandlarimiz qachongacha repetitora borib o'qishadi?! Axir, hukumatimiz butun e'tiborni maktabga, o'qituvchilarning nufuzini oshirishga qaratsa-yu, ular esa "3" bahoga yetarli ball to'play olmasa... Bu shuncha e'tibor va yaratilayotgan sharoit-

larga nisbatan xiyonat emasmi?! Xayolim o'z-o'zidan malaka oshirish institutlari tomon yetaklab ketdi. Malaka oshirishda bir oy mobaynida turli xil fanlar o'tiladi. Bugungi kun siyosati, iqtisodi, pedagogika, psixologiya, texnologiya va hokazo. Nima keragi bor bularning? Undan ko'ra mutaxassislik fanlari qayta-qayta o'rgatilmaydimi?! Ingliz tili ham bormi-yey. Bir oylik malaka oshirish kursida ingliz tili o'qib, kim tili o'zlashtirib, gapirib ketibdi? Xayolim yana oliy ta'lim tomon sayr qilgisi keldi. OTMda ham ahvol shu. O'z fanini 71 foizdan past o'zlashtirgan talabani kursdan kursga o'tkazmaslik masalasini ko'rib chiqishni taklif qilishni o'ylab qoldim. Malaka oshirishda yana al-lambalo pedtexnologiyalarni o'rgatishadi. O'z fanini yaxshi bilmagan o'qituvchiga nima keragi bor texnologiyalarning, turli xil o'yinlarning?!

Avvalo, malaka oshirish tizimi va OTMlarni tubdan isloh qilmas ekanmiz, kelajak mana shunday o'qituvchilar qo'lida qolib ketaveradi. Menda bir taklif bor: mutaxassislik fanidan 71 foizdan kam ball to'plagan barcha o'qituvchilarni malaka oshirishga emas, balki repetitorlarga jo'natish lozim. Nima deysiz, repetitorlik malaka oshirish institutlari tashkil qilish kerakdir balki. Faqat bunday ta'lim dargohi o'qituvchilarga mo'ljallangan bo'lib, bir oyga emas, bir necha oyga rejalashtirilishi lozim va oxirgi sinovdan 71 foizdan yuqori ball to'plaganlarga sertifikat berilsa va shu asosda ishni davom ettirsa yaxshi bo'lardi...

To'liqinbek XOLJO'RAYEV,
Jizzax davlat pedagogika instituti
akademik litseyining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Mavsumga tayyormisiz?

Har yili respublikamizda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish uchun barcha sohalarida tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. Bu jarayon, ayniqsa, favqulodda vaziyatlar xizmati xodimlari oldiga ham bir qator vazifalar yuklaydi. Yong'in vaqtida ajralib chiqadigan tutun, karbonat angidrid va boshqa zararli gazlar atmosferaga ko'tarilib, musaffo havo tarkibini bulg'aydi. Eng achinarlisi, yong'inlar ko'plab insonlarning jarohatlanishiga, hatto hayotdan bevaqt ko'z yumishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bunday holatlarning oldini olish maqsadida O'zbekiston davlat konservatoriyasi ishchi xodimlari ishtirokida gaz va elektr energiyasidan to'g'ri va oqilona foydalanish, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish yuzasidan kengaytirilgan yig'ilishlar o'tkazib kelinmoqda. Kuz-qish mavsumida bino xonalarida isitish moslamalaridan foydalanish hollari ko'payishi natijasida yong'inlar sodir bo'ladi. Gaz plitasini o'z boshimchalik bilan boshqa joylarga ko'chirib o'tkazish, rezina shlang ulab ishlash, qo'lbo'l isitish uskunalaridan foydalanish baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkinligi haqida bino ishchi-xodimlari ogohlantirilmogda.

Yong'in ortidan kelib chiquvchi salbiy holatlarning oldini olish, shuningdek, davlat mulkini ko'z qorachig'idek asrash har birimizning burchimizdir.

Ilhom MAHKAMOV,
O'zbekiston davlat konservatoriyasi
YXTTEB katta inspektori, podpolkovnik

Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizining 08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha "Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 30-sentabr soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Boboqulov Akbar Nosirovichning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida potash olishning fizik-kimyoviy va texnologik asoslari" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K.T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 8-oktabr soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.
Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanru@mail.ru

To'raqulov Behzod Begmatovichning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy materiallar asosida kaliy gidroksid olishning nazariy asoslari va chiqindisiz texnologiyasi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K.T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 8-oktabr soat 12:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.
Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanru@mail.ru

Tuxtayev Kabul Muxammadiyevichning 04.00.07 — Neft va gaz konlari geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish ixtisosligi bo'yicha "Janubiy Ustyurt botiqligining cho'kindi qoplami quyi gorizontlari va paleozoy majmuasining chuqur geologik tuzilishi hamda neft-gazlik istiqbollari" mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruv instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019.GM.41.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 21-oktabr kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100059, Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko'chasi, 114-uy.
Tel/faks: (71) 250-92-15, e-mail: igirnigm@ing.uz

Yuldashev G'afurning 04.00.07 — Neft va gaz konlari geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish ixtisosligi bo'yicha "Neft va gaz konlarining geoelektrik samarasi va neftgazliklikni geofizik usullarda prognozlash" mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruv instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019.GM.41.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 22-oktabr kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100059, Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko'chasi, 114-uy.
Tel/faks: (71) 250-92-15, 250-92-15; e-mail: igirnigm@ing.uz

Tursunova Gulnoza Xamzayevnaning 02.00.04 — Fizik kimyo ixtisosligi bo'yicha "Polimer gellarning suvli eritmalarida bo'kish jarayonining fizik-kimyoviy asoslari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 6-oktabr kuni soat 13:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-11-40; e-mail: devonxona@samdu.uz

Mansurova Nargiza Asrorovnaning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "O'zbek va yapon millatlarida Parkinson kasalligining qiyosiy klinik va patobioximik jihatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/13.05.2020. Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 13-oktabr kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, A.Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50; 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Ijtimoiy fanlar fakulteti "Ijtimoiy ish" kafedrasida professori, sotsiologiya fanlari doktori
Ma'rifat G'ANIYEVning
vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga ta'ziya bildiradi.

"Ma'rifat"—"Учитель Узбекистана" gazetalari tahririyati jamoasi tahririyat xodimi Malohat Toshovaga onasi
IXBOL ayaning
vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

"Ma'rifat"—"Учитель Узбекистана" gazetalari tahririyati jamoasi tahririyat xodimi Nargiza Joymirzayevaga otasi
Quvondiq JOVMIRZAYEVning
vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.



O'QITUVCHI, MURABBIY, USTOZI!

Qalbimizga yaqin bu so'zlar zaminida katta ma'no va mazmun bor. Zero, har birimiz o'qituvchi qo'lida savod chiqardik, murabbiy va ustozdan ta'lim oldik, tarbiya olib, kamolga yetdik.

Har yili 1-OKTABR – O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI umumxalq hayrami sifatida mamlakatimizda keng nishonlanishi sharaflı kasb egalarning zahmatli mehnatlari e'tirofidir.

Jamoamiz nomidan Siz aziz o'qituvchi va murabbiylarni, ta'lim va fan tizimini rivojlantirilishi yo'lida mehnat qilayotgan barcha olimu tadqiqotchilarni, ustozlarni ayyomingiz bilan samimiy qutlaymiz!

Barchangizga mustahkam sog'liq, uzoq umr, oilaviy baxt-u iqbol tilaymiz!

LOMONOSOV NOMIDAGI MOSKVA DAVLAT UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHAR FILIALI JAMOASI



PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, KASB-HUNAR TALIMI BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRIS INSTITUTI VAKANT O'RINLARGA TANLOV E'LON QILADI

№	Kafedralarning nomi	Lavozimi	Kafedra mudiri
1	Innovatsion ta'lim texnologiyalari	1	1
2	Personalni boshqarish	1	1

Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

1. Direktor nomiga ariza (kafedra mudiri, dekan, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha direktor o'rinbosari imzosi).
2. Xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa.
3. Oliy ma'lumoti to'g'risida diplom (ilova bilan), ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxasi.
4. Nashr etilgan ishlari ro'yxati.
5. Malaka oshirganligi to'g'risida guvohnoma.
6. Oxirgi uch yillik faoliyati bo'yicha hisoboti (o'quv, ilmiy-ustubiy, ilmiy tadqiqot, tashkiliy-ustubiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar).
7. 2 dona foto surat.

TANLOVGA HUJJATLAR E'LON GAZETADA CHOP QILINGAN KUNDAN BOSHLAB BIR OY MUDDAT ICHIDA QABUL QILINADI.

Hujjatlarni quyidagi manzilga topshirishingizni so'raymiz:
100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyov ko'chasi, 76-uy.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI SANITARIYA, GIGIYENA VA KASB KASALLIKLARI ILMYI-TADQIQOT INSTITUTI

Tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) hamda mustaqil izlanuvchilik tartibida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash maqsadida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 2021-yil 1-bosqich uchun qabul e'lon qiladi.

Tayanch doktorantura (PhD): 14.00.07 – Gigiya – 5 o'rin.
Doktorantura (DSc): 14.00.07 – Gigiya – 1 o'rin.

O'QISHGA TALABGORLAR QUYIDAGI HUJJATLARNI TAQDIM ETADI:

Falsafa doktori (PhD) va doktorantura (DSc) hamda mustaqil izlanuvchilik ilmiy darajasini olish uchun doktoranturaga kiruvchi shaxslar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar: ariza, pasport nusxasi, ma'lumotnoma, mehnat daftarchasining nusxasi, oliy ta'lim diplom nusxasi, nashr etilgan ilmiy ishlar nusxalari (ilmiy jumallarda kamida bitta hamda ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita ma'ruza tezisi), ilmiy rahbar yozma roziligi.

Talabgorlar chet tili va mutaxassislik fanidan kirish imtihonlarini topshiradi.

HUJJATLAR JORIY YILNING 15-OKTABRIGACHA <http://www.mininnovation.uz> SAYTIDA ONLAYN QABUL QILINADI. KIRISH IMTIHONLARI 2020-YIL 1-25-NOYABR KUNLARI BO'LIB O'TADI.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Oltintepa ko'chasi, 325-uy. Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti.

Murojaat uchun tel: (71) 266-69-54, (93) 580-87-32



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:


O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4321. Tiraj: 8339.
Hajmi 4 bosma taboq, Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.